

ELMUROD TANGIRQULOV

GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

ISBN: 978-9910-9267-0-9



9 789910 926709

5468



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOY FANLAR FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI

Elmurod Tangirqulov

GEOGRAFIYA

O‘QITISH METODIKASI

fanidan

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN

O‘quv qo‘llanma



Bilim sohasi: 100 000 – gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 110000 – pedagogika

Ta’lim yo‘nalishi: 6011500 – boshlang‘ich ta’lim

TERMIZ – 2024

УДК: 378.091.31:91(075.8)

КБК: 74.58+26.8ya73

T 21

Oliy ta'limga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi yangi-yangi izlanishlarni, jumladan pedagogik sohasidagi mustaqil ishlarning ilmiy-tadqiqot va zamonaviy mavzularida bo'lishini ham taqozo qilmoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining "Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi" ta'lim yo'nalishining talabalari uchun mo'ljallangan "Geografiya o'qitish metodikasi" fanidan amaliy mashg'ulot mavzularini o'z ichiga olgan.

"Geografiya o'qitish metodikasi" fanidan tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma fan o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va keng muhokama qilinib tasdiqlangan, talabalarning kelgusi ilmiy-tadqiqot ishlariga fundamental asos bo'lishiga xizmat qiluvchi mavzular asosida bajarilishi ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika universitetining "Boshlang'ich ta'lim" mutaxassisligi o'qituvchilariga, magistrantlariga va bakalavriyat yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

Muallif

O'quv qo'llanma Termiz davlat universiteti kengashining 2023- yil 11-oktyabrdagi 366 PO'-sonli buyrug'iga asosan bosishga tavsiya etildi.

ISBN: 978-9910-9267-0-9

© Tangriqulov Elmurod

© "SURXON ILM NASHRI" nashriyoti, 2024-y.

SO‘Z BOSHI

“Geografiya o‘qitish metodikasi” fanidan tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanmasi “Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan, yangi pedagogik texnologiya yutuqlari, Milliy o‘quv dasturi hamda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida tayyorlandi. Talaba yoshlarning fan bo‘yicha tafakkurlarini yuqori darajada rivojlantirish va shu orqali umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalaridan biridir.

Umumiy va xususiy metodikadan geografiya o‘qitish metodikasining asosiy masalalarini didaktik tamoyillarni, sinfdan tashqari ishlarni to‘g‘ri tashkil etish va tarbiyaviy ahamiyatini chuqur yoritish zarurligi, shuningdek, boshlang‘ich sinflarda geografiyani o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchining amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi muhim ahamiyatga egaligi sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda ta‘limga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga ortib bormoqda, boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi o‘qitadigan fanlarda foydalanadigan mashg‘ulotlarda qaysi mantiqiy yoki matematik tushunchalar modellashtirilishini bilishi lozim. Mazkur qo‘llanmamizda aynan talabalarning geografiyadan boshlang‘ich ta‘lim metodikasi bo‘yicha olgan bilimlarini seminar mashg‘ulotlarida qo‘llash kabi ishlarining tavsifini va namunalarini o‘z ichiga oladi. O‘quv qo‘llanmani yaratishda M.I.Nuriddinova, N.Mamadinova, M.Ahmedova, Sh.Mirzaxmatova, D.Pulatova va boshqalarning maktab darsliklari mualliflari ijodidan foydalanilganligi uchun ularga minnatdorchilik bildiramiz.

Muallif

SEMINAR MASHG'ULOTI: QUYOSH SISTEMASI

Mashg'ulotdan maqsad: Quyosh sistemasi to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning quyosh sistemasi mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo'yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasida amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- quyosh sistemasi mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;
- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;
- quyosh sistemasining tuzilishi haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Quyosh o'z o'qi atrofida sekin-asta muntazam sharqdan g'arbga tomon aylanadi. Quyosh Galaktika markazi atrofida 200 million yil davomida bir marta aylanib chiqadi. Yaqin yulduzlarga nisbatan Quyosh sekundiga 20 km tezlik bilan harakat qiladi. Quyoshni o'zi yasagan teleskop yordamida G.Galiley 1611-yili kuzatgan va undagi dog'larni, o'z o'qi atrofida aylanish davrini aniqlagan.

Nemis olimi G.Shvabye 1843-yilda Quyosh dog'larining soni, uning faolligi davriy o'zgarishini topdi. Hozirgi davrda eng yaxshi ishlab chiqilgan gipoteza, rus akademigi O.Y.Shmidt (1891-1956) ning o'tgan asrning o'rtalaridagi ishlariga asoslangan gipotezasi hisoblanadi. Schmidt gipotezasiga muvofiq, planetalar o'zi endigina shakllangan quyosh atrofida zarralari turli-tuman orbitalar bo'ylab aylanib yurgan juda katta va sovuq gaz-chang buluti moddalaridan paydo bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan bu bulutning shakli o'zgarib borgan, zarralarning to'qnashishlari va ularning o'zaro energiya almashinishi shunga olib kelganki, bunda bulut asta-sekin yassilana borgan, zarralarning orbitalari esa aylanalarga yaqinlashib borgan. Yirik zarralar o'zlariga maydalarini qo'shib olgan. Bir tomonga yo'nalgan harakat ko'payib borgan.




1-rasm. Quyosh sistemasi.

Moddaning quyuqlashgan bo'laklari hosil bo'lib, ular qalinligi diametriga qaraganda minglab marta kichik bo'lgan disk shaklida taqsimlangan. Eng yirik quyuqlashgan bo'laklarning massasi tez ortib borgan. Keyin moddaning har xil kattalikdagi hosil bo'lgan dastlabki "po'k" guvalaklarning ko'pligidan bir necha yirik jismlar-planetalar paydo bo'lgan. Hisob-kitoblar, yer o'zining hozirgi massasiga bir necha yuz million yilda erishganligini ko'rsatdi. Sirti sovuq bo'lgan yerning ichki qismi radiaktiv elementlar hisobiga qiziy boshlagan. Bu, yerning ichidagi moddalarni erishiga olib kelgan. Og'ir elementlar cho'kib yadroni vujudga keltirganda, yengil elementlar sirtga chiqib yer qobig'ini vujudga keltirgan. Bo'lajak planetalarni o'rab olgan zarralar to'plamida ularning bir-birlariga yopishish jarayoni yuz bergan va oqibatda planetalarning yo'ldoshlari paydo bo'lgan.

1913-yilda amerika astronomi J.Xeyel quyosh dog'lari, quyosh sirtining sovigan qismlari ekanligini va sirtida kuchli magnit maydonlari borligini kashf etdi. 1940-yil boshida quyosh radio to'lqinlar manbai ekanligi, keyinchalik quyosh toji spektorida bir necha chiziqlarni, ko'p marta

ionlangan kimyoviy elementli chiziqlar ekanligi hamda quyosh tojining yuqori haroratga egaligi kashf etildi.



2-rasm. Quyosh sistemasi.

Quyosh asosan vodorod va geliydan tashkil topgan. Uning yuzasidagi harorat 6000 O ga yaqin. Quyoshdan chiqadigan energiya termoyadro reaksiyasi jarayonida vodorodning geliyga aylanishidan hosil bo'ladi. Quyoshda 69 kimyoviy element borligi olimlar tomonidan aniqlangan.

Mavzuga oid bir soatlik dars ishlanma.

MAVZU: QUYOSH SISTEMASIDAGI BOSHQA OSMON JISMLARI. KOSMONAVTIKA

Darsning maqsadlari:

a) ta'limiy maqsad: O'quvchilarga yangi mavzu haqida tushuncha berish, ularning quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari haqida ma'lumotlarini boyitish. Ularning koinot haqidagi bilimlarini kengaytirish;

b) tarbiyaviy maqsad: Hayotiy ko'nikmalar va bilish faoliyatini tarbiyalash, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish, ziyraklik faollik, ijodkorlik tuyg'ularini tarbiyalashni ona Vatanni sevis, uni qadrlashga o'rgatish, o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmasini hosil qilish;

v) rivojlantiruvchi maqsad: birgalikda, hamkorlikda, jamoaviy ishlash ko'nikmasini shakllantirish, "Quyosh sistemasida"gi sayyoralarni farqlashga o'rgatish, yangi so'zlar hisobiga lug'at boyligini oshirish ko'nikmasini rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars metodi: "Savol- javob", "Tushuntirish"

Pedagogik texnologiya: “Tezkor savol-javob”, “Guruhlarda ishlash”, “Insert”, “Zinama-zina”;

Didaktik o‘yin: “Kim chaqqon” mashqi.

Dars jihozi: Texnik vositalar, darslik, globus, sayyoralar aks etgan rasmlar, slayd, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish,
- Davomatni aniqlash,
- O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish,
- Kun yangiliklarini tinglash.

O‘quvchilarga oltin qoidalar yana bir bor tushuntiriladi.



(Prezidentimizning “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ 1875-sonli qarorining amalda bajarilishi).

Bugungi sana, oy, yil, fasl, hafta kunlari, navbatchidan ingliz tilida so‘raladi. Navbatchi axboroti tinglanadi.

II. Ma'naviyat daqiqasi. 2022-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla" yili deb nomlanganligi aytiladi. O'quvchilar tomonidan she'rlar aytiladi.

E'zoz

Asl farzand bo'lay desangiz, Gulday unib o'say desangiz,
Duo olib to'lay desangiz, Ezgu ishlar qilay desangiz,
Har bir tongni savobdan boshlang Keksalarni ezozlab yashang...
Kuz faslida nishonlanadigan bayramlar so'raladi. (ingiliz tilida).

O'quvchilar bayramlarni ingliz tilida sanab, mustaqillikka, ustoz va murabbiylarga, ona tilimizga, bayrog'imizga atab she'rlar aytadilar.

(O'quvchilar diqqatini jamlash uchun "Muloqot" metodidan foydalaniladi)

1. Quyosh nima?

2. Nima uchun quyoshni yerdagi hayot manbai deymiz, fikringizni asoslang.

3. Nima uchun quyosh eng yaqin yulduz, deyiladi?

O'quvchilar fikr-mulohazalari jamlanib, xulosa qilinadi.

Fan shiori aytiladi: Ona tabiatni asrash bizning miqaddas burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasining 52-moddasi yodga olinadi. "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqorasining burchidir. Shu jumladan bizning ham burchimizdir".

III. Uyga berilgan vazifani so'rash:

Uyga vazifa: Yer quyosh sistemasidagi sayyora. Yulduzlar. Quyosh

O'tilgan mavzu "Zinama-zina" texnologiyasi orqali mustahkamlanadi.

O'quvchilar uch guruhga bo'linadi.

1-guruh: Yulduzlar 2-guruh: Zvyozdi 3-guruh: Stars



Guruh sardorlari saylanadi.

Har bir guruh sardori o'zining rag'bat kartochkalarini yig'ib boradi.

Guruhlarga topshiriq:

O'tilgan mavzu bo'yicha krossvord beriladi.

IV. Yangi mavzu: quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari. Kosmonavtik

Yangi mavzu o'quvchilarga "Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari. Kosmonavtika" mavzusi ekanligi e'lon qilinadi.

Bugungi sayohatimizni yana uchar raketamiz orqali fazogirlarga aylanib koinotga yo‘l olamiz.



Quyosh sistemasiga kiruvchi sayyoralardan tashqari boshqa jismlar ham bor. Bulardan birinchisi **kometalardir**.

“Bosh” va “Dum” qismidan iborat bo‘lgan quyosh sistemasidagi osmon jismi “**kometa**” deyiladi.

Kometalarning boshi qattiq holatdagi tosh, temir va boshqalardan, dumi esa gaz va changlardan iborat.

Kometalarning shunday ulkanlari borki, uzunligi 200 million km ga teng. Quyosh sistemasida mingdan ortiq kometalar bor. Yerni o‘rab turgan havo bizni kometalardan himoya qiladi.



Ikkinchi osmon jismi “**Asteroidlar**”, ya’ni “**daydi toshlar**” ham mavjud.

Yer shari ularni o‘ziga tortadi. Nihoyatda tezlik bilan yerga uchib kelayotgan bunday “**daydi toshlar**” havoda yona boshlaydi.

Havoda yonib, yorug‘ iz qoldirgan osmon jismi **meteor** deb ataladi.



Yerga tushgan meteorlar **meteorit** deb ataladi. Yerni o‘rab turgan havo bizni meteorlardan himoya qiladi.



Kosmonavtika – osmon jismlari va hodisalarini o‘rganadi. 1957-yilning 4-oktabr kuni yerning birinchi sun‘iy yo‘ldoshi koinotga uchirildi. 1961-yil 12-aprel kuni rus fazogiri **Yuriy Gagarin** birinchi bo‘lib fazoda o‘zining “**Vostok1**” havo kemasida yer atrofini 108 minutda aylanib chiqqan.



Yangi mavzu darslik asosida yaratilgan multimedia ilovadagi mavzuga oid video lavha orqali davom ettiriladi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu o'qituvchining internet tarmoqlaridan foydalangan holda yaratgan mavzuga oid video slaydi orqali mustahkamlanadi.



“Kim fazogir bo'lmoqchi va nima uchun?” Javoblar eshitilib, kerakli maslahatlar beriladi. O'quvchilar tomonidan **“kosmosga sayohat”** nomli o'yin o'ynaladi. Bunda har bir o'quvchi o'z rasmlarini kerakli sayyoralarga joylashlari kerak bo'ladi.

5. Dars yakuni: o'quvchilarga mavzu bo'yicha quyidagi savol beriladi.

Savollarga javob bering

- Kometa deb qanday osmon jismiga aytiladi?
- Kometalar qanday ko'rinishda va kattalikda bo'ladi?
- Meteor qanday osmon jismi? Tunlari osmonda ular-ni ko'rganmisiz?
- Meteorlar nima uchun Yerga kelib urilavermaydi?
- Meteorit nima? Meteor meteoritdan nimasi bilan farq qiladi

Bolajonlar, darsimizdan nimalarni bilib oldik?

Darsdimizni qanday fanlar bilan o'zaro bog'ladik?

Sizlarga darsimiz yoqdimi?

O'quvchilarga ona yerimizni, musaffo havomizni asrash, uni himoya qilish haqida tushuntiriladi.

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirib boriladi. Dars so'nggida baholanadi.

Ustozlar bayrami munosabati bilan o'quvchilar tomonidan she'r, qo'shiqlar ijro etiladi.

O'quvchilar qo'l mehnati bilan tayyorlangan sovg'alar ustozlarga topshiriladi.

6. Uyga vazifa:

Dars davomida to'plangan ma'lumot asosida quyosh sistemasidagi osmon jismlari haqida daftarga yozib kelish vazifa qilib beriladi.

Nazorat savollari:

1. Nima uchun koinotni cheksiz deymiz va u qanday jismlardan tashkil topgan?

2. Galaktika nima va u megagalaktikadan qanday farqlanadi?
3. Yulduzlar qanday xususiyatlari jihatidan sayyoralaridan farq qiladi?
4. Sayyoralar deb nimaga aytiladi? Ichki sayyoralar qanday xususiyatlari jihatidan tashqi sayyoralaridan farqlanadi?
5. Quyosh va oy, yerning geografik qobig'idagi tabiiy jarayonlarga qanday ta'sir etadi?

Mavzu bo'yicha testlar

1. Quyosh sistemasi o'z o'qi atrofida o'rtacha hisobda necha kunda 1 marta aylanib chiqadi?

- | | |
|-------------|-------------|
| A) 30 kunda | S) 27 kunda |
| B) 25 kunda | D) 29 kunda |

2. Quyosh sayyorasidagi 2-sayyoraning nomi?

- | | |
|-----------|-------------|
| A) Yer | B) Merkuriy |
| S) Venera | D) Saturin |

3. Birinchi kichik sayyora (asteroidlar) nechanchi yilda kashf etildi?

- | | |
|---------------|---------------|
| A) 1721-yilda | S) 1801-yilda |
| B) 1895-yilda | D) 1905-yilda |

4. Birinchi kichik sayyora (asteroidlar) nechanchi yilda kashf etildi?

- | | |
|---------------|---------------|
| A) 1721-yilda | S) 1801-yilda |
| B) 1895-yilda | D) 1905-yilda |

5. Kometa so'zining ma'nosini bilasizmi?

- | |
|---------------------------------------|
| A) Grekcha — "komets" — uzun sochli |
| B) Lotincha — "komets" — uzun sochli |
| S) Inglizcha — "komets" — uzun sochli |
| D) Yunoncha — "komets" — uzun sochli |

SEMINAR MASHG'ULOTI: HAYVONOT OLAMI

Mashg'ulotdan maqsad: Hayvonot olami to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning hayvonot olami mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;
- ✓ mavzu bo'yicha test tuza olishi;
- ✓ mavzuga oid rasm chiza olishi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasida amaliy ishlar bajarishi.

Ishni bajarish tartibi:

- hayvonot olami mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;
- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;
- hayvonot olamining tuzilishi va turlari haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Yer yuzida hayvonot olami ham o'simliklar singari tarqalgan. Ularni shimoliy muz qutblaridan tortib janubiy kengliklarga, shuningdek, cho'l, dasht, tog' zonalarida ham uchratish mumkin (2-rasm).



3-rasm. Hayvonot olami.

Hayvonot olami xilma-xildir. Hozirgi paytda yer yuzida 1,5 millionga yaqin hayvon turlari ma'lum. Hayvonlarning xilma-xilligi, tuzilishi, xulq-atvori, ko'payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiatda va inson hayotidagi rolini o'rganadigan fan zoologiya deb ataladi

Hayvonlar bilan o'simliklar murrakkab tuzilishga ega bo'lib, ularning umumiy o'xshashlik tomonlari ham bor. Masalan, ularning har ikkalasi ham xujayralardan tuzilgan ikkalasi ham oziqlanadi, o'sadi rivojlanadi. Ko'pgina hayotiy jarayonlari ham juda o'xshab ketadi. Bularning hammasi hayvonlar bilan o'simliklar bir-biriga qarindosh ekanligini, ular bir negizdan tarqalganligini ko'rsatadi.

Lekin shu bilan birga ular o'rtasida katta farqlar ham bor. Masalan, hayvonlar - geterotrof, o'simliklar esa avtotrof organizmlardir. Hayvonlar yuradi, harakat qiladi, noqulay sharoitdan qulay sharoitga o'tadi. O'simliklar esa bir xil sharoitda ekildimi, o'sha yer sharoitga moslashsa o'sadi, moslasha olmasa, nobud bo'ladi. Shuning uchun ham hayvonlar soni o'simliklarga nisbatan 3 barobar ortiqdir.

Respublikamizda sut emizuvchilarning 91 ta turi, sudralib yuruvchilarning 57 ta turi, qushlarning 400 ta turi, baliqlarning 40 tadan ortiq turi bor. Ular muayyan qonuniyatlar bo'yicha tarqalgan.

O'zbekistonning hayvonot olami ham xilma-xil. Lekin so'nggi yillarda insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida (yerlarni haydash, yangi turar joylarni barpo etish, yaylovlardan noto'g'ri foydalanish, noto'g'ri ov qilish) ularning soni va turi kamayib ketmoqda. Chunonchi, oqquyruq, jayron, laylak, xonguli, arxar, burama shoxli echki (morxo'r), qirg'ovul, kaklik miqdori keskin kamayib ketdi. Ba'zi hayvonlar esa jumladan, turon yo'lbarisi butunlay yo'qolib ketdi. So'nggi yillarda qirilib ketayotgan hayvonlarni saqlab, ko'paytirish uchun yangi buyurtma maskanlari va qo'riqxonalari tashkil etildi. O'zbekiston tabiatining ko'rkamligi uning hududida nodir tabiat go'shalarini (ajoyib soy, jilg'a, buloq, sharshara, shovva, noyob daraxtlar, har xil jinslar, ochilib qolgan qoyalar, g'orlar, sardobalar va hokazolar) tabiiy holicha saqlab qolishga bog'liq. Lekin so'nggi yillarda noo'rin har xil sog'lomlashtirish obyektlarini qurish, sayyohlarning tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishi, har xil qurilishlar (suv ombori, ariqlar qazish, chorvachilik majmualari va boshq.) sababli o'sha xushmanzara joylarga putur yetmoqda.

Bizning maqsadimiz manzarali xushtabiat joylarni (tabiat yodgorliklarni) iloji boricha o'z holicha saqlab, kelgusi avlodlarga qoldirish.

O'zbekistonda turi, soni kamayib borayotgan noyob o'simliklar va hayvonlarni hisobga oluvchi ikki jildli O'zbekiston "Qizil kitobi" nashr etilgan. O'zbekiston "Qizil kitobi"ning birinchi jildiga 63 ta umurtqali hayvon

turi, shu jumladan, 22 ta sutemizuvchi, 31 ta qush, 5 ta sudralib yuruvchi hayvon, 5 ta baliq turi kiritilgan. “Qizil kitob”ning ikkinchi jildiga muhofaza qilinishi zarur bo‘lgan o‘simlik turlari kirgan. Bu jildga O‘zbekistonda muhofaza qilinishi kerak bo‘lgan 400 ta o‘simlik turining 163 tasi kiritilgan. O‘zbekiston tabiatining muhofaza qilishda qo‘riqxonalar, milliy bog‘ va buyurtmalarning ahamiyati juda katta. O‘zbekistonda hozir qo‘riqxonalar sifatida muhofaza qilinayotgan maydon 250,5 ming ga yoki respublika hududining atigi 0,6% ini tashkil etadi. O‘zbekistonda 9 ta qo‘riqxonalar joylashgan. Qo‘riqxonalar haqidagi ma’lumotlar ilovadagi 8-jadvalda berilgan. Kelajakda respublikamizda qo‘riqxonalar maydoni kengayib (Ustyurt, Orolbo‘yi, Qizilqumda yangi qo‘riqxonalar barpo etish, Hisor qo‘riqxonasini kengaytirish hisobiga), O‘zbekiston hududining 3% ini tashkil etadi.

MAVZU BO‘YICHA BIR SOATLIK DARS ISHLANMA NAMUNASI

MAVZU: Hayvonlarning yashashi uchun nimalar zarur?

Ta’limiy maqsadi: O‘quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, atrofdagi o‘simlik va hayvonot dunyosi namunalari bilan tanishtirish, ularni asrab-avaylashga, himoya qilishga o‘rgatish.

T.k.2 televizor, radio va boshqa manbalardan tabiat va undagi hodisalarga oid zarur ma’lumotlardan foydalanish, o‘ziga zarur ma’lumotlarni o‘zlashtira olish.

Tarbiyaviy maqsadi: Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish.

T.k.1 mavzuni ravon gapirib berish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish.

Rivojlantiruvchi maqsadi: O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki nutqini o‘stirish. Mustaqil fikrlash qobiliyatini kengaytirish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning jihozlanishi: Tabiatning turli fasllardagi manzaralari, o‘simlik va hayvonlarning rasmlari, kishilarning mehnat jarayoni, ular tomonidan yaratilgan buyumlarning rangli suratlari.

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

II. Tashkiliy qism

- Salomlashish,
- Davomatni aniqlash,
- O‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish,
- Kun yangiliklarini tinglash.

O'quvchilar uch guruhga bo'linib o'tiradilar.

Tabiatda uch xazina bor,
Havo, yer, suv — zilol begʻubor,
Nainki bir shudring tushgan oʻt,
Shuning uchun ona tabiat ishonchini oqlagin har vaqt.

Va na osmon, na dengiz, daryo,
Xizmatida beminnat, bisyor,
Sening uchun turar tayyor,

O'quvchi:

Ona tabiat bizga inom etayotgan barcha narsalardan to'g'ri foydalana olishimiz darkor.

Tabiatdagi barcha narsa o‘z o‘rniga ega. Ona tabiatning o‘zi shifokor.

Tabiatda birinchi galda tejamkorlikka rioya qilish kerak. Tabiatdagi bir tomchi suvni ham tejab ishlatsak, biroz bo'lsa-da, suv tanqisligining oldini olgan bo'lamiz. Hozir e'tiboringizga havola etadigan sahna ko'rinishidagi holat oilada tez-tez uchrab turishi sir emas.

“Suvni asrang” sahna ko‘rinishi.

Fasllar adashar navbatdan ba'zan.

Yil aro kechikib, aldar ko‘klamlar,

Mana tabiatning “Qizlil kitobi”,

Bizga xizmat qilsin, har oqim, o‘zan.

Sizu bizdan so‘rar odil javobin.

Buyuk tabiatni asrang, odamlar!

Tilsiz jonivorlar, bedarak qushlar,

O'quvchi:

Har bir inson tabiatni asray bilmog‘i lozim. Zero, inson ona tabiatning barcha ne‘matlaridan bahramand bo‘lmoqda. Biz o‘quvchilar ham tabiatni muhofaza qilishga astoydil kirishishimiz kerak. Tabiat muhofazasi — bu

bizning kelajagimiz, bizdan keyin yer yuzida saqlanib qoladigan yoki bizning aybimiz bilan yo‘q bo‘lib ketishi mumkin bo‘lgan tabiat muhofazasidir.

O‘quvchi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Fuqorolar tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” deyilgan.

Asraylik tabiatni,
Jilg‘a suvu daryoni.
Zilol suvlar oqadi,
Suvning toza sofliqi
Hammamizga yoqadi.
Har taraf gulzor chaman,
Ko‘rkam bo‘lsa, bog‘-rog‘lar.

Olisdan ko‘z-ko‘z etib,
Tursa ko‘rkini tog‘lar.
Shuning uchun do‘stlarim
Oyoqlarda turib tik,
Bizga mehribon ona-tabiatni
asraylik.

O‘quvchi:

Quyosh yerni qizdirsa,
Chechaklar so‘lg‘in bo‘lsa,
Yerlar qovjirab qolsa,
Unga ayting, ne kerak?
Albat, albat suv kerak.

Kirlansa yuz qo‘limiz
Chanqasa o‘ng-so‘limiz,
To‘zg‘ib ketsa yo‘limiz,
Ayting unga ne kerak?
Albat, albat suv kerak.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Yashil makon” umummilliy harakatiga start berildi. Loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirilgan.

“Yuksalish” umummilliy harakati O‘zbekistonda daraxtlar sonini oshirishga qaratilgan bu kabi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu maqsadda respublikamizning 6 ta hududida “Bir million daraxt” aksiyasi o‘tkazmoqda.

1. Limon va rayhonning inson salomatligiga foydali jihatlarini o‘rganing.

2. Olimlar tabiatda ajoyib shakllar mavjudligini o‘rganishgan.

Siz ham qarag‘ay qubbasi tangachalari qanday shaklda joylashganini o‘rganing.

Yangi mavzuni bayon etish

1. Hasharotlar tanasi qanday tuzilgan?

2. Hasharotlar haqida nimalarni bilasiz?


Kalit so'zlar:
asalari, kapalak, hayot sikli, oziq zanjiri

Hasharot – umurtqasiz hayvon. Uning tanasi qattiq qobiq bilan qoplangan. Barcha hasharotlarning tanasi va oyoqlari bo'g'imlarga bo'lingan. Ularning tanasi bosh, ko'krak va qorin qismidan iborat. Boshida bir juft mo'ylovi, ko'zlari, ko'krak qismida esa ikki juft qanotlari va uch juft oyoqlari joylashgan.



Asalari – mehnatkash hasharot, gul nektari, gul changini yig'ib, gullarni changlatadi va asal hosil qiladi. Asal tarkibida inson salomatligi uchun foydali vitamin va minerallar mavjud. Asalning foydali xususiyatlari ko'p bo'lgani uchun asalarichilik sohasiga qiziqish katta.

Kapalakning hayot sikli



O'quvchilar bilimni baholash.

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa.

Tut ipak qurti hayot siklining modelini yasang.



Nazorat savollari:

1. Hayvonot olami haqida ma'lumot bering.
2. Yer yuzida hayvonot dunyosining evolutsiyasi to'g'risida tushuncha.
3. Hayvonlar klassifikatsiyasi, deganda nimani tushunasiz?
4. Hayvonlarning xilma-xilligi va yashash muhiti haqida tushuncha bering.
5. Hayvonlarning ahamiyati nimalardan iborat?
6. Zoologiya fanining rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering.

Mavzu bo'yicha testlar

1. Hayvonlarni o'rganuvchi fan?

- A) Botanika S) Zoologiya
B) Geografiya D) Astronomiya

2. Dunyodagi eng katta hayvon?

- A) Fil S) Kit
B) Tuya D) Ot

3. Yer yuzida hayvonlarning million turi tarqalgan?

- A) 6 million S) 3 million
B) 1,5 million D) 4 million

4. Suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar?

- A) amfibiyalar S) xordalilar
B) embriologiya D) sistematika

5. Hayvonlar nechi guruhga bo'linadi?

- A) uy va yavvoyi hayvonlar,
B) umurtqali va umurtqasiz hayvonlar,
S) hayvonlar va qushlar,
D) xonaki va yirtqich hayvonlar,

SEMINAR MASHG'ULOTI: O'SIMLIKLAR DUNYOSI

Mashg'ulotdan maqsad: O'simliklar dunyosi to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning o'simliklar dunyosi mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;
- o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;
- ✓ mavzu bo'yicha test tuza olishi;
- ✓ mavzuga oid rasm chiza olishi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasida amaliy ishlar bajarishi.

Ishni bajarish tartibi:

- o'simliklar dunyosi mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;

- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;
- o'simliklar dunyosining tuzilishi haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Respublikamiz hududida 3000 tadan ziyod o'simlik turi mavjud bo'lib, bularning 9 foizi faqat O'zbekistonda uchraydigan endemik o'simliklardir. O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosi Kavkaz va Old Osiyo, xususan, Eron mamlakatlari hududi bilan muayyan umumiylikka ega.

Gulli o'simliklarning tabiatdagi va insonhayotidagi ahamiyati. Gulli o'simliklarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati nihoyatda katta. Ular inson uchun oziq-ovqat, sihat- salomatlik, kiyim-kechak va qurilish material, uy jihozlari va yoqilgi manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, o'simliklar hayotimiz bezagi - tabiat go'zalligidir. Yashil daraxtlar bilan qoplangan bepoyon o'rmonlar o'lkamiz chiroyiga chiroy qo'shadi.

Gulli o'simliklar va ularning organlari. Yer yuzida gulli o'simliklarning 240 mingdan ortiq turi uchraydi. Ular Yer sharining turli iqlim sharoitlariga yaxshiroq moslashgan va shu sababli keng tarqalgan. Ana shu o'simliklarni turli shakllarda uchratish mumkin, masalan, gulli o'simliklardan daraxt, buta, chala buta hamda o't o'simliklar shular jumlasidandir. Daraxt deganda poyasi yog'ochlangan va yaxshi shakllangan, asosiy tanaga ega bo'lgan ko'p yillik o'simlik tushuniladi. (terak, chinor, olma va boshqalar.) Buta poyasi yo'g'ochlangan, ammo asosiy tanaga ega bo'lmagan ko'p yillik o'simlikdir. Ular bir nechta poya chiqaradi (atirgul, na'matak, maymunjon va boshqalar.) Chala buta deb poyasining ostki qismi yog'ochlangan, yuqorigi qismi esa har yili kuzda qurib qoladigan ko'p yillik o'simlikka aytiladi (shuvoq, izen va boshqalar.)

Gulli o'simliklarning kuzgi holati, kuz faslini xalqimiz «oltin kuz» deb ataydi. Chunki bu faslda mevalar pishib yetiladi va mazali bo'ladi. Daraxt va butalarning barglari qizg'ish, sarg'ish ranglarda tovlanib, tabiat chiroyiga chiroy qo'shadi.

Kuz - o'simliklarning qishga tayyorlanish yoki xazonrezgilik davridir. Bizning sharoitimizda kuz fasli o'ziga xos ko'rinishda o'tadi va shu bilan boshqa hududlardagi kuzdan farq qiladi. Chunonchi yoz o'rtalarida harorat qulay bulsada, daraxt va boisha o'simliklarning o'sishi sekinlashadi yoki butunlay to'xtab qoladi. Yozning ikkinchi yarmidan boshlab ko'pchilik o'simliklarning meva va urug'lari pishadi, o'simlik ro'qimalarida zadira oziq moddalar to'planadi.



3 - rasm. O'simliklar dunyosi.

Shundan keyin o'simliklarqishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Daraxtlarning qishlaydigan kurtaklari shakllanadi va qotib yogochlanadi. Poyalarga, ildizlarga va qishlaydigan boshqa organlarga oziq moddalar zoqr berib oqa boshlaydi. Qishga tayyorgarlikning oxirida o'simlik barglarini to'kadi.

Ildiz o'simlikning yer ostki vegetativ organidir. Urug'ning unishi davrida o'simlik organlarining o'sishi urug' tarkibidagi moddalar hisobiga sodir bo'ladi. Urug'dan dastlab ildizcha o'sib chiqadi va yosh o'simtani tuproqda biriktiradi. Shu vaqtdan boshlab o'simlik ildizi tuproqdan suv va mineral: moddalarni shimib ola boshlaydi. Ba'zi o'simliklar ildizida oziq moddalar g'amlanadi. Ildiz orqali ba'zi o'simliklar tuproqdagi tirik organizmlar bilan aloqada bo'ladi.

Ildizchanning rivojlanishidan asosiy ildiz shakllana boshlaydi. Asosiy ildiz o'sib undan yosh ildizlar vujudga keladi. Yon ildizlar o'z navbatida yana yangi yon ildizlarni xosil qiladi. Yon ildizlar brogan sari ingichkalashib tuproqqa kirib boraveradi. O'simlikning asosiy ildizi va barcha yon ildizlari

birgalikda ildiz tizimini xosil qiladi. Ayrim o'simliklarning poya va barglarida xam ildizlar xosil bo'lishi mumkin. Bunday ildizlar qo'shimcha ildizlar deyiladi. Tol, terak, tut va boshqa o'simliklarning qo'shimcha ildizlari qalamcha qilish yo'li bilan ko'paytiriladi. Makkajo'xori, supurgi, karam kabi o'simliklar poyasining pastki qismi tuproq; bilan ko'milsa, tezda qo'shimcha ildizlar hosil bo'ladi va o'simlikning oziqlanishiga yordam beradi

O'zbekistonning cho'l zonalarida o'suvchi o'simliklarning ildizlari nihoyatda xilma-xildir. masalan, yantoqning o'q ildizi 15 m chuqurlikka kirib boradi va o'simlikni bimalol suv bilan ta'minlaydi. erta bahorda gullab, qisqa vaqt hayot kechiruvchi bir yillik (efemer) o'simliklarning ildizlari aksincha tuproqda yuza joylashadi. ular bahorgi yomg'irlar hisobiga o'sadi. ko'p yillik o'simliklardan qandim yoki juzg'unning ildiz sistemasi gorizontol holda yoyilgan bo'lib, yon ildizlari atrofga 20 metrgacha tarmoqlanib ketadi. bunday yon ildizlar ko'chib yuruvchi qumlarda o'simlikni mustahkam tutib turish imkonini beradi. saksovul ildizlari esa tuproqning (o'simliklarning) ham yuza, ham chuqur qatlamlarida joylashadi va tarmoqlanadi. Yuza qatlamlardagi ildizlar o'simlik tanasini sumlikka biriktirib tursa, chuqur qatlamlardagi ildizlar esa suvni shimib olishga imkon beradi. madaniy o'simliklarning ildizlari esa cho'l o'simliklariniki kabi bir-biridan keskin farq qilmaydi. chunki tuproqning haydaladigan qatlamiga tegishli ishlov berib turiladi. yerni kuzda shudgorlash, tuproqni yumshatish, o'g'itlash, sug'orish, almashlab ekish ildiz sistemasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Demak, ildiz o'simlikning hayot kechirishi uchun eng zarur organlardan biri ekan.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

MAVZU: MANZARALI O'SIMLIKLAR.

Maqsad: Ta'limiy: O'quvchilarni manzarali o'simliklar bilan tanishtirish. **Tarbiyaviy:** ularni asrab-avaylashga, himoya qilishga o'rgatish. **Rivojlantiruvchi:** O'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish
Kommunikativ kompetensiya:

muloqotga kirishish uchun zarur bo'ladigan og'zaki nutqni o'zlashtirish, jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalariga oid tayanch so'z va atamalarning ma'nosini aytib bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavzuga doir ma'lumotlarni kompyuter va boshqa manbalardan izlab topib, ulardan samarali foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

dunyoqarash va tafakkurini mustaqil ravishda o‘stirib borish, atrofidagi tabiat manzaralarini estetik his etish, sportning yoshiga mos turi bilan shug‘ullanish, o‘zini tuta olish, to‘g‘riso‘z bo‘lish, o‘zining xatosini tushunish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; farzandlik va o‘quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

o‘zi yashaydigan o‘lkaning tabiati, tarixiy obidalar haqida bilish; uyi, maktabi, turar joyini qadrlash; do‘stlari, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi **Dars uslubi:** Suhbat, savol-javob.

Dars jihozi: Mavzuga mos rasmlar, didaktik materiallar.

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Tashkiliy qism


- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

II. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarning darsni qanchalik o‘zlashtirganligini savol-javob orqali so‘rab bilish.

1. Dorivor o‘simliklarning damlamasini iste‘mol qilganmisiz?
2. Ariq bo‘ylarida qanday dorivor o‘simliklar o‘sadi?
3. Dorivor o‘simliklardan qaysilari tog‘larda o‘sadi? Ular qanday shifobaxsh xususiyatlarga ega?
4. Yana qanday dorivor o‘simliklarni bilasiz?

III. Yangi mavzu bayoni.

Ko'cha bo'ylari va xiyobonlarda tol, chinor, akatsiya, shumtol, oqqayin, terak, eman kabi daraxtlar o'stiriladi. Ular ko'chalar, xiyobonlar va istirohat bog'larini bezab turadi. Yozda ularning soya-salqinida dam olamiz. Bunday manzarali daraxtlar havoni kislorod bilan boyitishda ham katta ahamiyatga ega. Chunki ularning barglari havodagi karbonat angidridni yutib, o'zidan kislorod chiqaradi. Bundan tashqari, manzarali daraxtlar uylarni shamoldan to'sib turadi, havoni chang va mashinalardan chiqayotgan zaharli gazlardan tozalaydi. Suv bo'ylarida esa majnuntollar o'sadi. Gullar manzarali o'simliklar hisoblanadi. Hovli va xiyobonlarda o'stiriladigan gullar shular jumlasidandir.



Ayniqsa, atirgul, chinnigul, kartoshkagul, gulbeor, marmarak (nargis) kabi gullar xushmanzaraliligi bilan odamni o'ziga jalb etadi.

IV. Mustahkamlash.

1. Sizning ko'changizda qanday manzarali daraxtlar o'sadi?
2. Yashil devor hosil qilish uchun qanday manzarali butalar ekiladi?
3. Maktab gulzorida qanday gullar bor?
4. Atirgul qanday parvarish qilinadi?

V. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholayman. VI. Uyda o'qib kelish, rasm chizish.

Nazorat savollari:

1. Biosfera haqida tushuncha bering?
2. Hujayraning tuzilishi. Endoplazmatik to'r, ribosoma, Golji apparati, mitoxondriya, lizosoma, hujayra markazi va to'qimalar haqida tushuncha bering?
3. Hujayraning ko'payishi. Jinssiz va jinsiy ko'payish haqida ma'lumot bering?

4. O‘simliklar to‘qimalari haqida ma’lumot bering?
5. Dunyo iqlimidagi global muammolar haqida tushuncha bering?

Mavzu bo'yicha testlar.

1. Cho‘l o‘simliklariga mansub o‘simlik turini belgilang?

- A) selin
B) silu
S) ermon
D) sutlama

2. Ra'noguldotslarga oilasiga mansub o'simlik turini belgilang?

- A) shuvoq
B) izen
- S) na'matak
D) shachratqi

3. Poyasi yog‘ochlangan, ammo asosiy tanaga ega bo‘lmagan ko‘p yillik o‘simlik...

- A) o‘t o‘simlik S) buta
B) chala buta D) daraxt

4. Boshqodoshlar oilasiga mansub o‘simliklarning qancha turi fanga na’lim?

- A) 10.000 -12.000 turi S) 7500-10.000 turi
B) 5000 -7000 turi D) 15.000-17.000 turi

5. Yer yuzida o‘simliklarning necha mingdan ortiq turi tarqalgan?

- A) 200 ming S) 600 ming
B) 500 ming D) 800 ming

SEMINAR MASHG‘ULOTI: O‘QUV-TAJRIBA UCHASTKASIDA MAVSUMIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

Mashgʻulotdan maqsad: Oʻquv-tajriba uchastkasida mavsumiy ishlarni tashkil etish toʻgʻrisida nazariy tushuncha va koʻnikmalarni shakllantirish. Talabalarning oʻquv-tajriba uchastkasida mavsumiy ishlarni tashkil etish mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qoʻshimcha maʼlumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang‘ich ta‘lim darsliklari, ko‘rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, targatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo 'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuqa oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;
- ✓ mavzu bo'yicha test tuza olishi;

- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasida amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- o'quv-tajriba uchastkasida mavsumiy ishlarni tashkil etish mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;
- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;
- o'quv-tajriba uchastkasida mavsumiy ishlarni tashkil etishning tuzilishi haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: O'quv tajriba maydonchasidagi dars. Darsning bu tipidan faqat nazariy bilimlarnigina emas, balki aniq o'quv va ko'nikmalarni egallashda ham o'quvchilarga yordam berish uchun foydalaniladi. O'quv-tajriba maydonchasidagi darslar tabiat obyektlarini tabiiy sharoitlarda o'rganishga, o'simliklarni parvarish qilishga, qishloq xo'jaligi ish qurollari bilan ishlashga o'rgatish imkoniyatini beradi. Bu darslarning bosh didaktik maqsadi mehnatsevarlikni tarbiyalash bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishdir. Asosiy tuzilish elementlari — tashkiliy qism, o'qituvchilarga yo'1-yo'riq berishi, o'quvchilarning mustaqil ishlashidir. O'quv-tajriba maydonchasidagi mashg'ulotlar rejasini keltiramiz:

- darsning vazifalari;
- darsga tayyorlanish;
- darsni jihozlash;
- dars o'tishni tashkil etish va metodikasi (dars mavzusi va maqsadini tushuntirish, muammoli savollar qo'yish, muammoli vaziyat vujudga keltirish, o'qituvchining tushuntirishi, o'qituvchining ish uslublarini ko'rsatishi, suhbat, ko'rsatilgan uslublarni o'quvchilar tomonidan takrorlanishi, butun sinf bilan amaliy ish bajarilishi, o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha yo'1-yo'riqlar berish);
- yakuniy suhbat.

Dars boshlanishidagidek tashkiliy ravishda tugallanishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga barcha ish qurollarini to'plashni, ularni

tozalab, ko'rsatilgan joyga qo'yishni taklif qiladi. Bir qism vaqt o'quvchilarning o'zlarini tartibga keltirib olishlari: ust va oyoq kiyimlarini tozalashlari, qo'llarini sovun bilan yuvishlari va hokazolar uchun qoldiriladi.

Darsning muvaffaqiyatli o'tishi va qat'iy intizomga erishish uchun o'qituvchi yana ish boshlangungacha har bir o'quvchiga u mehnat qiladigan maydonchani ko'rsatadi, shuningdek, kerakli individual ish qurollarini va ekish materialini beradi, har bir o'quvchi ish bilan band bo'lishi lozim, ish natijalari dars oxirida tekshirilishi va baholanishi kerak.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

Mavzu: *Loyiha ishi. O'simliklarni ekish va parvarishlash*

Maqsad

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya: tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi; tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi; turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi; Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko'rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

IV. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- O‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash: O‘tgan mavzu yuzasidan savol-javob orqali guruhlar bilan ishlab mavzu haqidagi fikrlar va umumiy xulosalar mustahkamlanadi. O‘quvchilarni qiziqtirgan mavzuga doir qo‘shimcha savollarga javob beriladi.

1. *Pomidorda nechta gul va meva bor?*
2. *Pomidordan nimalar tayyorlash mumkin?*
3. *Ikkita behi pishib, yerga tushdi.*

Daraxtda nechta behi qoldi?

5. *Behidan nimalar tayyorlanadi?*

III. Yangi mavzu bayoni.





IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning savollariga javob beriladi ulardan tabiat va tabiat hodisalari bo'yicha olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib bir-birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash: Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish, darsni yakunlash.

VI. Uyga vazifa: O'simlik parvarishi haqida o'rganish
Mavzu bo'yicha testlar.

1. O'quv tajriba uchastkasida nimalar parvarish qilinadi?

A) hayvonlar

S) hasharotlar

D) qushlar

2. 1-sinf o‘quvchilari kuz faslida o‘quv tajriba uchastkasida nimalarni o‘rganadi?

A) o'simliklarning gullari barglari shakllarini o'rganadi

B) hayvonlarni o‘rganadi

S) qushlarning hayot kechirish jarayonini

D) hasharotlarning yashash tarzini

3. O'quv tajriba uchastkasida 2-sinf o'quvchilari bahorda qaysi o'simliklarni ekadilar?

A) gul manzarali va dukkakli

B) daraxtlar va cho‘l o‘simliklari

S) o'q ildiz vaa popuk ildizlaar

D) saksovul va ildizmevali

4. O'quv tajriba uchastkasida 3-sinf o'quvchilari bahorda qaysi o'simliklarni ekaadilar?

A) dukkakli S) ildizmevali

B) igna bargli D) sershoxli

5. 4-sinf o‘quvchilari kuzda o‘quv tajriba uchastkasida bajaradigan ishlari?

A) gulli o'simliklar ekadilar

B) yuksak o‘simliklarni ekadilar

S) tuban o'simliklar ekadilar

D) hosilni yig‘ishni va saqlashni

SEMINAR MASHG‘ULOTI: JO‘G‘ROFIY MAYDONCHASIDA KUZATISH, AMALIY VA LABORATORIYA ISHLARINING YILLIK REJASINI TUZISH

Mashgʻulotdan maqsad: Joʻgʻrofiy maydonchasida kuzatish, amaliy va laboratoriya ishlarining yillik rejasini tuzish toʻgʻrisida nazariy tushuncha va koʻnikmalarni shakllantirish. Talabalarning joʻgʻrofiy maydonchasida kuzatish, amaliy va laboratoriya ishlarining yillik rejasini tuzish mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qoʻshimcha maʼlumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlangʻich taʼlim darsliklari, koʻrgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, targatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;
- o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo'yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- jo'g'rofiy maydonchasida kuzatish, amaliy va laboratoriya ishlarining yillik rejasini tuzish mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;

- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;

- jo'g'rofiy maydonchasida kuzatish, amaliy va laboratoriya ishlarining yillik rejasini tuzishning tuzilishi haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;

- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;

- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;

- mavzuga oid test yechish;

- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Maktab geografiya maydonchasidagi dars. Joydagi amaliy ish va kuzatishlarning ko'p qismini maktab oldi maydonchasida, shuningdek, jihozlangan geografiy maydonchasida o'tkazish mumkin. Bunday maydonchada odatda tushuntirilishi va o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan murakkab mavzular o'rganiladi. Geografiya maydonchasida ishni tashkil etish maktab oldi uchastkasidagidek bo'ladi. Geografiya maydonchasidagi darsga "Tabiatda suv" mavzusidagi dars misol bo'lishi mumkin. Buning uchun maydonchaga suv (vodoprovod suvi) keltirilishi va tegishli suv oqimini hosil qilish kerak. Agar suv oqimi yo'lga har xil to'siqlar qo'yilsa, qirg'oqlarning yuvilishi, orollarning hosil bo'lishi, daryoning oqimi, irmog'i va quyilishi manzarasini vujudga keltirish mumkin.

Geografiya maydonchasida o'quvchilar tepalikning tuzilishi yaxshi ko'ringani uchun yotiq va tik yonbag'irliklarini qarab chiqadi, keyin o'zlari qumda tepalik modelini tayyorlaydilar. Shuningdek, soyni uning yaxshi ko'rinadigan qismlari — boshlanishi, oqimi, quyilishi, o'ng va chap qirg'oqlari bilan modellashtirish mumkin. Bunda ular quyoshning ufq ustidagi

balandligini aniqlash uchun kun yarmidagi soyaning uzunligini o'lchashga, ufqning asosiy va oraliq tomonlarini erkin aniqlashga o'rganadilar, tabiat hodisalarini kuzatadilar va tushuntiradilar. Geografiya maydonchasidagi 3-4 sinf o'quvchilari bilan "Mahalliy belgilarga qarab ufq tomonlarini aniqlash", "Kompas bo'yicha aniqlash", "Quruqlik yuzasining shakllari", "Tog'lar" va shu kabi mavzularda bolalarni qiziqtiradi va katta foyda keltiradi, chunki ular amaliy faoliyat bilan bog'liqdir.

Geografiya maydonchasidagi mashg'ulotlar rejasini keltiramiz:

- darsning vazifalari;
- darsga tayyorlanish;
- darsni jihozlash;

- dars o'tishni tashkil etish va metodikasi (dars mavzusi va maqsadini tushuntirish, muammoli savollar qo'yish, muammoli vaziyat vujudga keltirish, o'qituvchining tushuntirishi, o'qituvchining ish uslublarini ko'rsatishi, suhbat, ko'rsatilgan uslublarning o'quvchilar tomonidan takrorlanishi, butun sinf bilan amaliy ish bajarilishi, o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish);

- yakuniy suhbat.

Dars boshlanishidagidek tashkiliy ravishda tagallanishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga barcha ish qurollarini to'plashni, ularni tozalab, ko'rsatilgan joyga qo'yishni taklif qiladi. Bir qism vaqt o'quvchilarning o'zlarini tartibga keltirib olishlari: ust va oyoq kiyimlarini tozalashlari, qo'llarini sovun bilan yuvishlari va hokazolar uchun qoldiriladi.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

MAVZU: O'SIMLIKLARNING XILMA-XILLIGI

Maqsadlar:

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

Kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo‘llaydi;

Amaliy kompetensiya: tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llay oladi; tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi; turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi; Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko‘nikmalarini safarbar etadi;

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko‘rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

II. O‘quvchilar bilan kirish suhbat.

Savol-javob o‘tkaziladi.

1. Tirik organizmlarni aniqlang va nomlarini ayting.
2. Jonsiz tabiat jismlarini aniqlang va nomlarini ayting.
3. Qaysi raqamlar bilan o‘simlik, zamburug‘ yoki hayvonlar berilgan?
4. Tirik organizmlar yashashi uchun jonsiz tabiatdan nimalar zarur?

III. Yangi mavzu bayoni

Daraxt poyasining ko'ndalang kesimida halqasimon chiziqlar ko'rinadi. Bu chiziqlar yillik halqalardir. Yillik halqalar soniga qarab daraxtning yoshini aniqlash mumkin.



*Atrofingizda qanday o'simliklarni ko'ryapsiz?
Ularning o'xshash va farqli jihatlarini ayting.
O'simliklarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?*

Daraxt:

- poyasi bitta, yog'ochlashgan;
- poyasi har yili yo'g'onlashadi;
- shox-shabbaga ega;
- ko'p yillik o'simlik.



Olma



Chinor



Terak

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarni savollariga javob beriladi ularga tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib bir birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar

V. O'quvchilarni rag'batlantirish, darsni yakunlash: Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish darsni yakunlash.

VI. Uyga vazifa: Sezgi organlari haqida ma'lumotlar yig'ish

Mavzu bo'yicha testlar.

1. Geografiya maydonchasini qurish uchun qancha o'lchamdagi ochiq joy kerak?

- A) 5 m²
- B) 15 m²
- S) 10 m²
- D) 20 m²

2. Gnomn qanday asbob?

- A) yerning zichligini o'lchaydigan asbob
- S) havo haroratini o'lchaydigan asbob
- B) quyoshning ufq ustidan balandligini o'lchaydigan asbob
- D) ob-havoni o'lchaydigan asbob

3. Havo namligini o'lchaydigan asbobni belgilang?

- A) Barometr B) Termometr S) Gigrometr D) Tanometr

4. Gorizont (ufq) – bu.....?

- A) doira shaklda ko'rinadigan ochiq joy
- B) ikki tomoni quruqlik, 1 tomoni suvlikdan iborat bo'lgan joy
- S) pasttekislikdan iborat bo'lgan joy

5. Shamolning yo'nalishi, tezligi va kuchi qanday asbob yordamida o'lchanadi?

- A) flyuger, anemometr
- B) barometr, flyuger
- S) anemometr barometr
- D) barometr, flyuger

SEMINAR MASHG'ULOTI: GEOGRAFIYA FANIDAN DASTUR VA MAVJUD KO'RGAZMALI QUROLLAR TAHLILI

Mashg'ulotdan maqsad: Geografiya fanidan dastur va mavjud ko'rgazmali qurollar tahlili to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning geografiya fanidan dastur va mavjud ko'rgazmali qurollar tahlili mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;
- o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;
- ✓ mavzu bo'yicha test tuza olishi;
- ✓ mavzuga oid rasm chiza olishi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.

Ishni bajarish tartibi:

- geografiya fanidan dastur va mavjud ko'rgazmali qurollar tahlili mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;
- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;
- geografiya fanidan dastur va mavjud ko'rgazmali qurollar tahlili haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Tabiatshunoslikni o'qitishda ko'rgazmali uslubdan foydalanish bolalarda aniq faktik bilimlarning to'planib borishiga yordam beradi.

Ko'rgazmali metodni umumpedagogik tamoyil, ko'rgazmalilik bilan adashtirmaslik kerak. Bu tushunchalar har xil bo'lib, bir-biriga sira o'xshamaydi. Ko'rgazmali vositalar deyarli hamma tabiatshunoslik darslarida qo'llaniladi. Ko'rgazmalilik o'quvchilarning nutqi va tafakkuri nuqsonlarni tuzatish (korrektsiyalash)da katta ahamiyatga ega. To'g'ri qo'yilgan savol, keyinroq esa tizimlangan savollar majmuasi namoyish qilinayotgan obyekt va tajribalarga e'tiborni jalb qiladi.

Tabiatshunoslik darslarda qo'llaniladigan ko'rgazma vositalariga (tirik tabiiy obyektlar va tasviriy jadvallar, sistemalar, mulyajlar, kino, diafilm, diapozitiv) va boshqalar kiradi.

Ekran vositalariga diafilm, multimedia, diapozitiv va kinofilmlar kiradi.

Ekran — ovozli ko'rgazma vositalari. Ularga o'quv filmlari, diafilm, gram yozuvlar, o'quv ko'rsatuvlari kiradi. Bu ekran qo'llanmalari harakatdagi voqea-hodisalarni ifodalaydi. Ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lmagan, uzoq o'lkalarda mavjud tirik va jonsiz tabiat unsurlarini harakatdagi holatini tabiiy muhitda ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar ham ko'rib, ham eshitish orqali bilim oladilar.

Tabiatshunoslikni o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning afzaliklari. Multimedia vositalari asosida o'quvchiga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Xususan, tabiatshunoslik darslarini yuqorida tilga olingan texnologiyalar yordamida rivojlantirishdan avval ularni ko'r-ko'rona qo'llashdan farqli o'laroq, shu texnologiyalarni fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalda qo'llashning natijasi yuqori bo'ladi. Multimedia-kompyuter grafikasi vositasini qo'llashning yo'nalishlaridan biri bo'lib, bunday texnologiya ta'lim, fan, san'at, iqtisodiyot kabi sohalarga sezilarli o'zgarishlarni kiritadi. Multimediali tezkor axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlanishning ilg'or tendensiyalaridan biri bo'lib kelmoqda. Ko'pgina ekspertlar keyingi asr — multimedia asri bo'ladi, deb faraz qiladilar. Qator mutaxassislar multimediani:

- axborot texnologiyalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida matn grafika, audio, video, animatsiya (obyektlarining fazodagi harakati) effektlari asosida o'quv qo'llanmalarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan ko'rinishi,

- kompyuterlarga matn, grafika, animatsiya raqamlashtirilgan ko'chmas tasvirlar, video, tovush va gap kabi ma'lumotlar turlarini kiritish, ishlab chiqish, saqlash, uzatish va aks ettirishga imkon beruvchi texnologiyalar majmuasidir.

- kompyuter vositasida amalda inson tomonidan foydalaniladigan barcha muhitlar axborot almashtirish vositalarini, usullarini, hamda ularning kompyuterga xos bo'lgan juda katta massivlarini saqlash va axborot elementlariga interaktiv ixtiyoriy kiritish imkoniyatlari bilan boyitishni integratsiyalash sifatini tushuntiradilar va bu to'g'ri.

Umuman, multimedida:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar) original (nutq, musiqa, videoli filmlardan parchalar, animatsiya va boshqalar) barcha dasturiy mashg'ulotda integratsiyalaydi. Bunda integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrafon, audio, tizimlar, optik kompakt disklar, video-magnitafonlar, videokameralar, televizor, elektron musiqa asboblariidan foydalangan holda kompyuter boshqaruvi bajariladi.

-“inson-kompyuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi, butun muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotni oladi, mazkur holat ta’lim, ishlash yoki dam olish sharoitini yaxshilashga imkon beradi.

Multimediada vositalarni va o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumlidir va bunda vaqtdan yutish mumkin. Multimediali vositalar asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo‘ladi, olingan bilimlar xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan qo‘llanmalarni ko‘rish asosida qabul qilish axborotning xotirada saqlab qolishi 25-30% ga oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv qo‘llanmalari audio-vidio va grafika ko‘rinishi mujassamlashgan holda berilsa qo‘llanmalarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortadi.

Multimediali vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan qo‘llanmalarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati bor;

- ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

- ta’lim olish vaqtining qisqarish natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishiladi.

AKT yordamida dars o‘tish:

- bilish imkoniyatlari asosiy tamoyillarining yuzaga chiqishi uchun imkoniyat yaratadi;

- munosabatlar tengligi tamoyilini;

- ishonchlilik tamoyilini;

- muloqot tamoyilini;

- mashg‘ulot-tadqiqot tamoyilini shakllantiradi.

Shuningdek, AKT: keng ko‘lamli kommunikatsion globallashtirilgan jamiyat sharoitida o‘rganuvchi (o‘quvchi) shaxsini shakllantirish va uni keng ko‘lamda hayotga tayyorlash;

- o‘zining aqliy faoliyatini tashkil etuvchi fikrlashni rivojlantirish, bilimlar sistemasini shakllantirish maqsadida psixologik-pedagogik ta’sirini kuchaytirish;

- har xil turdagi ma’lumotlarni bir vaqtda qabul qilish sharoitida va har xil axborot manbalarida optimal yechim qabul qilish yoki yechim variantlarini taklif etishning ma’nosini tushuntirish va mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

-imitatsiya, tashkiliy asosda eksperimental-tadqiqiy faoliyat axborot qidiruvni amalga oshira bilishni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Hamda darsni:

- yuqori estetik saviyada;
- ko'rgazmalilik yordamida o'tishga;
- didaktik materiallarning katta qamrovda mujassamlashtirishga;
- bajarilishi maqsad qilingan ish hajmini bir yarim ikki barobar oshirishga;
- ta'lim differensiyalining yuqori natijasini olishga;
- o'z ustida ishlashning imkoniyatlarini kengaytirishga;
- o'quvchilar bilimini qisqa muddat ichida adolatli baholashga;
- o'quvchilarda nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish malakasini;
- tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

MAVZU: O'SIMLIKLARNING HAYOT SIKLI

Maqsadlar.

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya: tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi; tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi; turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi; Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko'rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa


I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

II. O'quvchilar bilan kirish suhbat.

O'quvchilar bilan savol-javob o'tkaziladi.

III. Yangi mavzu bayoni




Hayot sikli nima?

O'simliklar hayot siklida qanday o'zgarishlarga uchraydi?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning savollariga javob beriladi ularga tabiat va tabiat hodisalari bo'yicha olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib bir-birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar



V. O'quvchilarni rag'batlantirish, darsni yakunlash:

Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish darsni yakunlash.

VI. Uyga vazifa:

O'simliklarning hayot sikli haqida kengroq ma'lumot yig'ish

Mavzu bo'yicha testlar.

1. Shamollar deb aytiladi?

- A) Yer yuzasida atmosfera bosimining bir xil bo'lmasligi natijasidagi holatga shamol deyiladi.
- B) Yer yuzasida suvning bug'lanishiga shamol deyiladi.
- C) Yer yuzasida litosferadagi ekzogen ta'sirlar natijasida yer po'stining yemirilishiga shamol deyiladi.
- D) Yer yuzasida bulutlarning havo harakatiga shamol deyiladi.

2. Kuz fasliga xos bo'lgan haroratni aniqlang?

- A) $+3^{\circ}$ dan $+15^{\circ}$ gacha S) $+5^{\circ}$ dan $+20^{\circ}$ gacha
- B) $+20^{\circ}$ dan pasayib $+5^{\circ}$ gacha D) $+20^{\circ}$ dan oshsa

3. Kuzatishlar, tajribalar, eksperimentlarga asoslangan o'qitishni qaysi metodist olim o'z asarlarida ta'kidlagan?

- A) V.F.Zuyev B) Y.M.Belskaya
- S) V.A.Gerd D) M.N.Skatkin

4. Ekologik omillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A) Yorug'lik, biotik, harorat C) Biotik, antropogen, iqlim
- B) Abiotik, zoogen, fitogen D) Abiotik, biotik, antropogen

5. Shamolning yo'nalishi, tezligi va kuchi qanday asbob yordamida o'lchanadi?

- A) flyuger, anemometr
- B) barometr, flyuger
- S) anemometr, barometr
- D) barometr, flyuger

SEMINAR MASHG'ULOTI: O'QITUVCHINING GEOGRAFIYA DARSLARIGA TAYYORGARLIK KO'RISHI. REJALASHTIRISH. 1-TAQVIM REJA, DARS ISHLANMASINI TUZISH. METODIK ADABIYOTLARNI TAHLIL QILISH

Mashg'ulotdan maqsad: O'qituvchining geografiya darslariga tayyorgarlik ko'rishi. Rejalashtirish. 1-taqvim reja, dars ishlanmasini tuzish. Metodik adabiyotlarni tahlil qilish to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Metodik adabiyotlarni tahlil qilish mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo'yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- o'qituvchining geografiya darslariga tayyorgarlik ko'rishi. Rejalashtirish. 1-taqvim reja, dars ishlanmasini tuzish. Metodik adabiyotlarni tahlil qilish mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;

- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;

- o'qituvchining geografiya darslariga tayyorgarlik ko'rishi. Rejalashtirish. 1-taqvim reja, dars ishlanmasini tuzish. Metodik adabiyotlarni tahlil qilish haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;

- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;

- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;

- mavzuga oid test yechish;

- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni tevarak-atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, ularda atrof-olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang'ich tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish va undan oqilona foydalanishni o'rgatish (1-2 sinflarda "Atrofimizdagi olam", 3-4 sinflarda "Tabiatshunoslik") o'quv fanlari orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" o'quv fani mazmunining negizi quyidagilarni o'z ichiga oladi: O'qituvchining tabiatshunoslik darslariga tayyorgarlik ko'rishi. Rejalashtirish. Taqvim reja, dars ishlanmasini tuzish. Metodik adabiyotlarni tahlil qilish va tayyorlash.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Milliy o'quv dasturi" talablari asosida umumiy ta'lim fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin ilg'or tajribalar, innovasion pedagogik texnologiyalarni izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko'rgan holda amaliyotga tadbiq etishga bo'lgan hayotiy ehtiyojni oshirib yubordi.

Davlat ta'lim standartlari o'quvchilar bilim va saviyasining minimal darajasini belgilaydi. Bu darajadan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun izlanish va tashabbus lozim. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni boshqarish, avvalambor, ana shu dolzarb vazifalarni hal qilib beradi.

1-sinf tabiiy fanidan dars ishlanmasi namunasi.

MAVZU: O'RMON.

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya: tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi; tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi; hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar,

tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi; turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi; Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars jihozi: ko'rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Dars yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism.

1. O'quvchilar bilan salomlashish
2. Davomatni aniqlash.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash: O'tgan mavzu yuzasidan savol-javob orqali guruhlar bilan ishlab mavzu haqidagi fikrlar va umumiy xulosalar mustahkamlanadi. O'quvchilarni qiziqtirgan mavzuga doir qo'shimcha savollarga javob beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O'rmonni qanday tasavvur qilasiz?

O'rmon qalin o't-o'simliklar, butalar va daraxtlardan iborat joydir. O'rmonda hayvonlar, qushlar yashaydi



O‘simliklar qalin o‘sganligi sababli o‘rmonning ayrim joylariga quyosh nurlari kam tushadi. Bunday joylarning zaxi ortib, **botqoqliklar** hosil bo‘ladi.

Nega o‘rmonlarda o‘t-o‘simliklar qalin o‘sadi?

O‘rmonda adashib qolsangiz, nima qilgan bo‘lar edingiz?

Rasmdagi hayvonlarning nomlarini ayting va ularni mashq daftaringizga yozib qo‘ying.



Yer yuzida o‘rmonlar juda kam.

Ularni asrab-avaylashimiz kerak!

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarni savollariga javob beriladi ulardan tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so‘ralib bir-birlari bilan taassurotlarini o‘rtoqlashadilar

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish, darsni yakunlash: Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish, darsni yakunlash.

VI . Uyga vazifa: O‘rmon haqida ma’lumotlar yig‘ish

Savol topshiriqlar.

1. Buta berilgan javobni belgilang.



2. Nima urug‘ni himoya qiladi va tarqalishiga yordam beradi?

- A. Barg
- B. Ildiz
- D. Meva

3. Olmaning hayot sikli nimadan boshlanadi?

- A. Urug‘ni ekishdan
- B. Niholdan
- D. Guldan

4. Umurtqali hayvonni belgilang.



5. Umurtqasiz hayvonni aniqlang.



Mavzu bo‘yicha testlar.

1. O‘quv fani sifatida tabiiyotga asos solgan “Tabiiyot tarixining ko‘rgazmalari” darsligi kim tomonidan qachonyozilgan?

- A) V.F.Zuyev, 1786-yil
- B) M.N.Skatkin, 1886-yil
- S) Q.Niyoziy, 1786-yil
- D) Y.M.Belskaya, 1972-yil

2. O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindistonning tabiiy geografik joylashishi, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqidagi mashhur biografik asar kim tomonidan yozilgan va qanday nomlanadi?

- A) Bobur “Boburnoma” S) Bobur “Humoyunnoma”
B) Firdavsiy “Shohnoma” D) Gulxaniy “Sayohatnoma”

3. Geografiyani o‘qitishda amaliy yoki nazariy maqsadlarga erishish uchun yangi yechim axtarishga majbur qiladigan holatga nima deyiladi?

- A) Aqliy hujum S) Muammoli yechim
B) Savol-javob D) Muammoli vaziyat

4. 2-sinf “Atrofimizdagi olam” darsligining asosiy mavzu yo‘nalishi qaysi qatorda berilgan?

- A) “Tabiat va odam”, “Tabiat jismlari”, “O‘simlik va hayvonot olami”, “Sog‘ligimizni saqlaymiz”, “Ekologiya”
B) “Tabiatning xilma-xilligi”, “O‘zbekiston tabiatini asraymiz”, “Foydali qazilmalar”, “Tabiat muhofazasi”
S) “Bizning uyimiz va jonajon tabiat”, “Bizning maktab va jonajon tabiat”, “Bizning shahar va jonajon tabiat”, “Jonajon mamlakat”
D) “O‘lkamizda kuz”, “Ona zaminimiz”, “O‘lkamizda qish”, “O‘lkamizda bahor”

5. Modulli ta’lim texnologiyalariga asoslangan metodlarning boshqa texnologiyalardan farq qiluvchi xususiyatlari – bu?

- A) o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholashni amalga oshirishdan iborat
B) o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikr yuritishi
S) o‘quv topshiriqlarini birgalikda bajarish
D) o‘quv faoliyatini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtirish

SEMINAR MASHG‘ULOTI: 1-SINF “GEOGRAFIYA VA IQTISOD” DASTURI VA DARSLIGINI O‘RGANISH, DARSNI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

Mashg‘ulotdan maqsad: 1-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlil to‘g‘risida nazariy tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirish. Talabalarning 1-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlil mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo‘shimcha ma’lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang‘ich ta’lim darsliklari, ko‘rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- mavzu bo‘yicha tushuncha va ma’lumotlarni;

- o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;
- ✓ mavzu bo'yicha test tuza olishi;
- ✓ mavzuga oid rasm chiza olishi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;
- ✓ o'quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.

Ishni bajarish tartibi:

- 1-sinf "geografiya va iqtisod" dasturi va darsligini o'rganish, darsni kuzatish va tahlil mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;

- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;

- 1-sinf "geografiya va iqtisod" dasturi va darsligini o'rganish, darsni kuzatish va tahlil haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;

- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;

- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;

- mavzuga oid test yechish;

- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: 1-sinf "Tabiiy fanlar" darsligi bilan tanishish va tahlil. Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtda maktablarda atrofimizdagi olam fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish zamon talabidir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Atrofimizdagi olam fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Atrofimizdagi olam ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o'quvchilarga tushunarli holda umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish va o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

“Tabiiy fanlar” fanini o‘qitishning asosiy maqsadi: o‘quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o‘rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’limda tabiiy fanlar fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

- joy nomlari va atamalarini to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;

- hozirgi zamon jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o‘stirish;

o‘quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftihor, fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash.

I sinfda Atrofimizdagi olam o‘quv fanini o‘rganish davomida atrofimizdagi olam va uning xilma-xilligi, tabiat, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida boshlang‘ich ma’lumotlar beriladi.

Shuningdek, o‘quvchilar bilimida aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadda mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o‘zgartirish va metodik kengash yig‘ilishida kelishilgan holda maktab pedagogika kengashida muhokama qilinib, tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur dasturda tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxatidan fan o‘qituvchilari ijodiy yondoshgan holda mavzularni kengaytirib o‘qitishda foydalanishlari mumkin. O‘quv dasturining boshida har bir sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar keltirilgan.

Bu o‘z o‘rnida o‘quv yili boshlanishida pedagoglarning harakat strategiyasini belgilab beradi. Mazkur o‘quv dasturi 2019/2020 o‘quv yilida I sinfda amaliyotga joriy etiladi.

Tabiiy (science) fanlardan 1-sinf uchun taqvim – mavzu reja
(haftasiga 1 soatdan, jami 33 soat)

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Izoh
I CHORAK			
1-dars	Men izlanuvchiman!	1	
2-dars	Amaliy mashg‘ulot. Jonli va jonsiz tabiatni o‘rganamiz?	1	

3-dars	Tirik organizmlar	1	
4-dars	O'simlik o'sishi uchun nimalar zarur?	1	
5-dars	O'simliklarning xilma-xilligi	1	
6-dars	Amaliy mashg'ulot. O'simliklarning tuzilishi	1	
7-dars	Loyiha ishi. O'simliklarini ekish va parvarishlash	1	
8-dars	Hayvonlarning yashashi uchun nimalar zarur?	1	
9-dars	Hayvonlarning xilma-xilligi	1	
II CHORAK			
10-dars	Hayvonlarning rivojlanishi	1	
11-dars	Amaliy mashg'ulot. Hayvonlarning ahamiyatini o'rganamiz	1	
12-dars	Ob-havo nima?	1	
13-dars	Amaliy mashg'ulot. Havo haroratini o'lchash	1	
14-dars	Yog'in turlari	1	
15-dars	Kuz	1	
16-dars	Qish	1	
III CHORAK			
17-dars	Bahor	1	
18-dars	Yoz. Amaliy mashg'ulot. Yil fasllarini farqlash va o'zgarishlarni tasvirlash	1	
19-dars	O'rmon	1	
20-dars	Cho'l tabiati	1	
21-dars	Suv havzasi	1	
22-dars	Osmonda nimalarni kuzatish mumkin?	1	
23-dars	Amaliy mashg'ulot. Quyosh, Yer va Oyni tasvirlash	1	
24-dars	Kun va tun	1	
25-dars	Nazorat ishi -1	1	
IV CHORAK			
26-dars	Issiqlik nima?	1	
27-dars	Yorug'lik nima?	1	
28-dars	Amaliy mashg'ulot. Issiqlik va yorug'lik manbalarini farqlash	1	
29-dars	Tovush	1	
30-dars	Amaliy mashg'ulot. Tovushlarni hosil qilish	1	
31-dars	Harakat nima?	1	
32-dars	Amaliy mashg'ulot. Harakat qanday yuzaga	1	

	keladi?		
33-dars	Umumlashtiruvchi dars. Nazorat ishi -2	1	

1-sinf tabiiy fanidan dars ishlanmasi namunasi.

MAVZU: YOZ

Maqsad

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya: tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi; tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi; turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi; Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko'rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa

5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- O'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

II .O'tgan mavzuni mustahkamlash: O'tgan mavzu yuzasidan savol javob orqali guruhlar bilan ishlab mavzu haqidagi fikrlar va umumiy xulosalar mustahkamlanadi. O'quvchilarni qiziqtirgan mavzuga doir qo'shimcha savollarga javob beriladi.

1. Bahorda tabiat qanday rangga burkanadiz
2. Qaysi o'simliklar bahor darakchilari hisoblanadi?

III. Yangi mavzu bayoni.

Yoz kelishi bilan tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Yozda odamlar nimalar bilan shug'ullanishadi?

Yoz faslida o'simliklarda qanday o'zgarishlar kuzatiladi?



Yoz oylariga iyun, iyul, avgust oylari kiradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarni savollariga javob beriladi ularga tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib bir birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar

Yoz fasli bilan bog'liq rasmlarni toping.



Yoz – yilning eng issiq fasli. Bu faslda juda ko‘p mevalar pishadi. Yoz kelishi bilan ta’til boshlanib, bolalar oromgohlarga boradilar.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish darsni yakunlash: Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish, darsni yakunlash.

VI. Uyga vazifa: Yoz faslidagi tabiat o‘zgarishlarini yozib kelish

Mavzu bo‘yicha testlar.

1. 1-sinf “Tabiiy fan” darsligining tuzuvchilari?

- A) K.T. Suyarov, Z.Y. Tillayeva, Z.B. Sangirova, M.K. Yuldashyeva
- B) K.T. Suyarov, N.SH.Nomozova, Z.B. Sangirova, M.K. Yuldashyeva,
- S) K.T. Suyarov, Z.Y. Tillayeva, Z.S.Burxonov, M.K. Yuldashyeva,
- D) K.T. Suyarov, Z.Y. Tillayeva, Z.B. Sangirova, B.D. Fatullayeva,

2. O‘zbekiston tabiatini aks ettiruvchi “Geografiya” darsligi qachon, kim tomonidan yaratilgan?

- A) Y.M.Belskaya, 1961 y
- B) D.Z.Tixomirov , 1959 y
- S) V.A.Gerd, 1970 y
- D) M.N.Sketkin, 1950 y

3. 1-sinf “Tabiiy fan” darsligining uchinchi mavzusning nomi?

- A) Men izlanuvchiman
- B) yer shari
- S) kichik tadqiqotchi
- D) tirik organizmlar

4. Ekologik omillar bu-

- A) namlik S) yorug‘lik
- B) harorat D) barchasi

5. Sezgi a‘zolari?

- A) o‘pka, quloq, jigar, buyrak, til S) quloq, til, ko‘z, burun, teri
- B) ko‘z, yurak, ichak, suyak, til D) tish, o‘pka, kiprik, yurak,

soch

**SEMINAR MASHG‘ULOTI: 2-SINF “GEOGRAFIYA VA
IQTISOD” DASTURI VA DARSLIGINI O‘RGANISH,
DARSNI KUZATISH VA TAHLIL**

Mashg‘ulotdan maqsad: 2-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlil to‘g‘risida nazariy tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirish. Talabalarning 2-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlil mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo‘shimcha ma’lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang‘ich ta’lim darsliklari, ko‘rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- mavzu bo‘yicha tushuncha va ma’lumotlarni;
- o‘quv-tajriba maydonchasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;
- mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ mavzuga oid darslikda berilgan ma’lumotlarni tahlil qilishi;
- ✓ mavzu bo‘yicha test tuza olishi;
- ✓ mavzuga oid rasm chiza olishi;
- ✓ o‘quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;
- ✓ o‘quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.

Ishni bajarish tartibi:

- 2-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlil mavzusi bo‘yicha talabalar bilan og‘zaki savol-javob o‘tkazish;

- o‘rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta’limi jarayonidagi ahamiyati haqida o‘qituvchining hikoyasi;

- 2-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlil haqida talabalarning qisqacha og‘zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o‘qituvchining ko‘rgazma berishi;

- talabalar o‘qituvchi rahbarligida o‘quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;

- boshlang‘ich sinf bo‘yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;

- mavzuga oid test yechish;

- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo‘yicha ma’lumot:

Tabiiy (science) fanlardan 2-sinf uchun taqvim – mavzu reja
(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat)

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Izoh
I CHORAK			
1-dars	Men izlanuvchiman!	1	

2-dars	Amaliy mashg'ulot. Rangli eritma yordamida gulni bo'yash	1	
3-dars	Tirik organizmlar va jonsiz tabiat	1	
4-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
5-dars	O'simliklarning xilma-xilligi	1	
6-dars	O'simlik organlari	1	
7-dars	O'simliklarning hayot sikli	1	
8-dars	Amaliy mashg'ulot. Urug'ning tuzilishi va o'rganish	1	
9-dars	Loyiha ishi. Urug'ning unib chiqish jarayoni va o'rganish	1	
10-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
11-dars	Nazorat ishi – 1	1	
12-dars	Hayvonlarning xilma-xilligi	1	
13-dars	Amaliy mashg'ulot. Umurtqasiz va umurtqali hayvonlarni o'rganamiz	1	
14-dars	Amaliy mashg'ulot. Hayvonlarning oziqlanishi	1	
15-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
16-dars	Odamning tana qismlari	1	
17-dars	Nazorat ishi – 2	1	
18-dars	Sog'lom turmush tarzi	1	
II CHORAK			
19-dars	Amaliy mashg'ulot. To'g'ri ovqatlanish	1	
20-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
21-dars	Cho'l	1	
22-dars	O'rmon	1	
23-dars	Tog'lar	1	
24-dars	Suvdagi hayot	1	
25-dars	Amaliy mashg'ulot. O'simlik va hayvonlarni yashash joyiga mos ravishda joylashtirish	1	
26-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
27-dars	Nazorat ishi – 3	1	
28-dars	Yer yuzasi qanday o'zgaradi?	1	

29-dars	Amaliy mashg'ulot. Zilzila vaqtida to'g' harakatlanishni o'rganamiz	1	
30-dars	Suv havzalari	1	
31-dars	Amaliy mashg'ulot. Suv havzalarini farqlash va ularni tasvirlash	1	
32-dars	Nazorat ishi – 4	1	
III CHORAK			
33-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
34-dars	Haroratni o'lchash	1	
35-dars	Yer yuzidagi sovuq va issiq joylar	1	
36-dars	Amaliy mashg'ulot. Eng issiq va sovuq joylarning tabiati hamda hayvonlarini farqlash	1	
37-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
38-dars	Tabiiy boyliklar	1	
39-dars	Amaliy mashg'ulot. Tuproq unumdorligini oshirishni o'rganish	1	
40-dars	Insonning tabiiy boyliklarga ta'siri	1	
41-dars	Amaliy mashg'ulot. Tosh, qum va tuproqning xususiyatlarini o'rganish	1	
42-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
43-dars	Nazorat ishi – 5	1	
44-dars	Yulduzlar va sayyoralar	1	
45-dars	Yer – sayyora	1	
46-dars	Amaliy mashg'ulot. Kun va tun almashinuvi	1	
47-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
48-dars	Bahor va yoz	1	
49-dars	Kuz va qish	1	
50-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
51-dars	Nazorat ishi – 6	1	
52-dars	Energiya nima?	1	
IV CHORAK			
53-dars	Yorug'lik va issiqlik	1	
54-dars	Amaliy mashg'ulot. Jismlarga issiqlik ta'siri	1	

	o'rganamiz		
55-dars	Atrofimizdagi tovushlar	1	
56-dars	Amaliy mashg'ulot. Tovushlarni hosil qilish	1	
57-dars	Amaliy mashg'ulot. Antiqa telefon	1	
58-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
59-dars	Nazorat ishi – 7	1	
60-dars	Harakat va tezlik	1	
61-dars	Amaliy mashg'ulot. Harakat turlarini o'rganish	1	
62-dars	Magnit nima?	1	
63-dars	Amaliy mashg'ulot. Magnit ta'sirini o'rganish	1	
64-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
65-dars	Nazorat ishi-8	1	
66-dars	O'quv sayri	1	
67-dars	Loyiha ishlarini yakunlash	1	
68-dars	Umumlashtiruvchi takrorlash	1	
JAMI:		68	

2-sinf tabiiy fanidan dars ishlanmasi namunasi.

MAVZU: BOB YUZASIDAN TAKRORLASH

Maqsadlar:

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya:

- tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llay oladi;
- tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;
- hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;
- turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi;
- turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko‘nikmalarini safarbar etadi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko‘rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish;
- Davomatni aniqlash;
- O‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish;
- Kun yangiliklarini tinglash.

II. O‘quvchilar bilan kirish suhbat

O‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish.

1. Loviya urug‘ini undirish uchun zarur sharoitni o‘rganish.
2. Loviya urug‘ining unib chiqish jarayonini kuzatish.
3. Kuzatish natijalarini qayd etish.

III. Yangi mavzu bayoni

1. Loviya o'simligi organlari rivojlanish davrida qanday ketma-ketlikda paydo bo'ladi? Ularning nomini ayting.



2. Abdulla o'simlik organlari haqida do'stiga so'zlab berdi.

a) Abdullaning qaysi fikrlari xato?

b) u yo'l qo'ygan xatolarni tuzating.



o'rni meva hosil bo'ladi.



orqali o'simlik tuproqdan suv va mineral tuzlarni shimib oladi.



– o'simlik uchun tayanch. U suv va oziq moddalarni gul va barglarga o'tkazadi.



yorug'lik va havo yordamida oziq moddalar hosil qiladi.



urug'ni himoya qiladi va tarqalishiga yordam beradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning savollariga javob beriladi. Ulardan tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib bir birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar.

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo‘llaydi.

Amaliy kompetensiya:

- tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llay oladi;
- tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

- turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi;
- turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko‘nikmalarini safarbar etadi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko‘rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Dars yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism.

1. O‘quvchilar bilan salomlashish
2. Davomatni aniqlash
3. Kun yangiliklarini tinglash.

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash:

O‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkaziladi.

1. Qaysi o‘simlik va hayvonlar suvda yashaydi?
2. Suvning inson hayotidagi ahamiyati qanday?

III. Yangi mavzu bayoni

Hayvonlarni yashash joyiga mos holda ajrating



Tog'



To'qay



Suv



Cho'l



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning savollariga javob beriladi. Ulardan tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib, bir birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish darsni yakunlash: Dars yakunida darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish, darsni yakunlash.

VI. Uyga vazifa: O'simliklar haqida ma'lumotlar yig'ish.

SEMINAR MASHG'ULOTI: 3-SINF "GEOGRAFIYA VA IQTISOD" DASTURI VA DARSILIGINI O'RGANISH, DARSNI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

Mashg'ulotdan maqsad: 3-sinf "geografiya va iqtisod" dasturi va darsligini o'rganish, darsni kuzatish va tahlil borasida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning 3-sinf "geografiya va iqtisod" dasturi va darsligini o'rganish, darsni kuzatish va tahlil mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo'yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv tajriba maydonchasida amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- 3-sinf "geografiya va iqtisod" dasturi va darsligini o'rganish, darsni kuzatish va tahlil qilish mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;

- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;

- 3-sinf "geografiya va iqtisod" dasturi va darsligini o'rganish, darsni kuzatish va tahlil haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;

- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;

- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;

- *mavzuga oid test yechish;*
- *talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.*

Mavzu bo'yicha ma'lumot:**Tabiiy (science) fanlardan 3-sinf uchun taqvim – mavzu reja**
(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat)

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Izoh
I CHORAK			
1-dars	Tabiatni qanday o'rganamiz?	1	
2-dars	Amaliy mashg'ulot. Men tadqiqotchiman!	1	
3-dars	Amaliy mashg'ulot. Sezgi organlari yordamida mevalarni o'rganamiz	1	
4-dars	Tirik organizmlarning xilma-xilligi	1	
5-dars	Amaliy mashg'ulot. O'simliklar xilma-xilligi	1	
6-dars	Hayvonlar xilma-xilligi . Hasharotlar	1	
7-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilga topshiriqlar	1	
8-dars	Nazorat ishi – 1	1	
9-dars	Organ va organlar sistemasi	1	
10-dars	Amaliy mashg'ulot. Odam organlari qanday ishlaydi?	1	
11-dars	Immunitet	1	
12-dars	Amaliy mashg'ulot. Sog'lom bo'lish sirlari	1	
13-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilga topshiriqlar	1	
14-dars	O'simliklardagi hayotiy jarayonlar	1	
15-dars	O'simliklarning ko'payishi va rivojlanishi	1	
16-dars	Loyiha ishi. Urug' va mevani o'rganamiz	1	
17-dars	Hayvonlardagi hayotiy jarayonlar	1	
18-dars	Nazorat ishi – 2	1	
II CHORAK			
19-dars	Yashash joyining turlari	1	
20-dars	Yashash joyiga ta'sir etuvchi omillar	1	
21-dars	Okean nima?	1	
22-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilga topshiriqlar	1	
23-dars	Yerning ichki qismlari	1	
24-dars	Yer yuzasidagi notekisliklar (relyef)	1	
25-dars	Nazorat ishi – 3	1	
26-dars	Yer yuzi relyefi qanday o'zgaradi?	1	

27-dars	Amaliy mashg‘ulot. Relyef maketini yasash	1	
28-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar	1	
29-dars	Tuproq va suvdan qanday foydalanamiz?	1	
30-dars	Tabiatni muhofaza qilish	1	
31-dars	Amaliy mashg‘ulot. Qizil kitobga kiritilgan o‘simli va hayvonlarni o‘rganish	1	
32-dars	Nazorat ishi – 4	1	
III CHORAK			
33-dars	Loyiha ishi. Kunlik suv sarfini hisoblash	1	
34-dars	Tog‘ jinslari va minerallar	1	
35-dars	Amaliy mashg‘ulot. Shamol va suv ta‘sirida tog‘ jinslarining o‘zgarishi	1	
36-dars	Foydali qazilmalar	1	
37-dars	Foydali qazilmalar qanday hosil bo‘ladi?	1	
38-dars	Amaliy mashg‘ulot. Foydali qazilmalar hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi o‘simlik va hayvonlarni o‘rganish	1	
39-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar	1	
40-dars	Nazorat ishi – 5	1	
41-dars	Ob-havo elementlari	1	
42-dars	Ob-havo nimalar ta‘sirida o‘zgaradi?	1	
43-dars	Amaliy mashg‘ulot. Mahalliy belgilar asosida ob-havo o‘zgarishi	1	
44-dars	Tabiatda suvning aylanishi	1	
45-dars	Ob-havo o‘zgarishlarini qanday kuzatish mumkin?	1	
46-dars	Loyiha ishi. Ob-havoni kuzatish	1	
47-dars	Yer va oy orbitalari	1	
48-dars	Yer va oyni taqqoslaymiz	1	
49-dars	Quyosh sistemasi	1	
50-dars	Amaliy mashg‘ulot. Quyosh sistemasi modelini yasash	1	
51-dars	Soya hosil bo‘lishi	1	
52-dars	Nazorat ishi – 6	1	
IV CHORAK			
53-dars	Amaliy mashg‘ulot. Soya hosil bo‘lishini o‘rganish	1	
54-dars	Tovush va uni kuchaytirish	1	

55-dars	Amaliy mashg'ulot. Stetoskop qurilmasini yasash	1	
56-dars	Energiyaning bir turdan boshqa turga aylanishi	1	
57-dars	Amaliy mashg'ulot. Energiyaning bir turdan boshqa turga aylanishi	1	
58-dars	Nazorat ishi – 7	1	
59-dars	Jismlarning harakati	1	
60-dars	Amaliy mashg'ulot. Masofa va vaqtni o'lchash.	1	
61-dars	Harakat turlari	1	
62-dars	Bob yuzasidan mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
63-dars	Massa va uning birliklari	1	
64-dars	Amaliy mashg'ulot. Jismlarning massasini o'lchash	1	
65-dars	Jismlarning o'zaro ta'siri	1	
66-dars	Amaliy mashg'ulot. Ishqalanish kuchining harakatga ta'siri	1	
67-dars	Nazorat ishi – 8	1	
68-dars	Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar	1	
JAMI:		68	

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

Mavzu: Tirik organizmlarning xilma-xilligi

Maqsadlar:

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning so'z boyligini oshirish, og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya:

- tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llay oladi;
- tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

- turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi;
- turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko‘nikmalarini safarbar etadi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko‘rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish,
- Davomatni aniqlash,
- O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish,
- Kun yangiliklarini tinglash.

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash: O‘tgan mavzu yuzasidan savol-javob orqali guruhlar bilan ishlab mavzu haqidagi fikrlar va umumiy xulosalar mustahkamlanadi. O‘quvchilarni qiziqtirgan mavzuga doir qo‘shimcha savollarga javob beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni

1. Tirik organizmlar yashashi uchun nimalar zarur?

2. Tirik organizmlar qanday guruhlarga bo‘linadi?

Atrofimizdagi olam jonli va jonli tabiat (tirik organizmlar)ga ajratiladi.

Tirik organizmlarga o‘simlik va hayvonlar, jonsiz tabiatga suv, havo, quyosh, shamol, tog‘ kiradi. Ular o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi.



O‘simliklar quyosh nuri ta’sirida oziq modda hosil qiladi. Quyon o‘simlik bilan bo‘ri quyon bilan oziqlanadi.

O‘simlik va hayvonlar o‘zaro oziq zanjiri orqali bog‘lanadi. Yer yuzida o‘simliklarning ko‘plab turlari mavjud. O‘simliklar tuzilishi bilan bir-biridan farqlanadi. Urug‘li o‘simliklar ochiq urug‘li va yopiq urug‘li (gulli) o‘simliklarga bo‘linadi. Urug‘li o‘simliklar urug‘lari yordamida ko‘payadi.


URUG'LI O'SIMLIKLAR



Qarag'ay – ochiq
urug'li o'simlik



Moychechak –
gulli o'simlik



Hayvonlar umurtqali va umurtqasizga ajraladi. Umurtqali hayvonlar tanasida ichki skelet bo'lib, uning asosini umurtqa pog'onasi tashkil etadi. Hayvon skeleti tayanch va ichki organlarni himoya qilish vazifasini bajaradi. Umurtqasiz hayvonlarda ichki skelet va umurtqa pog'onasi bo'lmaydi.

Umurtqali hayvonlar



Baliqlar



Suvda va
quruqlikda
yashovchilar



Sudralib
yuruvchilar



Qushlar



Sut
emizuvchilar

Umurtqasiz hayvonlar



Chuval-
changlar



Mollyus-
kalar



Qisqichbaqa-
simonlar



O'rgimchak-
simonlar



Hasharotlar

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarni savollariga javob beriladi. Ulardan tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so‘ralib, bir birlari bilan taassurotlarini o‘rtoqlashadilar.

1. Jonsiz tabiat tirik organizmga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Yashash joyingizda qanday gulli o‘simliklar uchraydi?
3. Umurtqali va umurtqasiz hayvonlarni taqqoslang.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish darsni yakunlash: Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish, darsni yakunlash.

VI . Uyga vazifa: O‘tilgan mavzu yuzasidan ma’lumotlar yig‘ish

Mavzu bo‘yicha testlar.

1. 3-sinf “Tabiiy fan” darsligi tuzuvchilar kimlar?

- A) Z.B.Sangirova, K.T.Suyarov, Z.Y.Tillayeva, M.M.Avezov
- B) Z.B.Sangirova, B.S.Xudoyberdiyev, Z.Y.Tillayeva, G.V.Mirzayev
- S) Z.B.Sangirova, A.K.Otaxonov, D.L.Sotivoldiyeva, M.M.Avezov
- D) Z.B.Sangirova, K.T.Suyarov, Z.B.Mengliyev, M.D.Qayumov

2. 3-sinf “Tabiiy fan” darsligining o‘n birinchi bobi qanday nomlangan?

- A) yorug‘lik
- B) energiya
- S) harakat
- D) ob-havo

3. Oddiy bargga mansub o‘simlik turini aniqlang?

- A) yeryong‘oq
- B) o‘rik
- C) jiyda
- D) loviya

4. 3-sinf “Geografiya” darsligi o‘zida qanday bo‘limlarni birlashtiradi?

- A) “Tabiat va odam”, “Tabiat jismlari”, ‘O‘simlik va Hayvonot olami”, “Sog‘ligimizni saqlaymiz”, “Ekologiya”
- B) “Tabiatda suv va havo”, “Foydali qazilmalar”, “Tuproq”, “O‘simliklar dunyosi”, “Hayvonot dunyosi”, “Tabiat va inson salomatligi”
- S) “Bizning uyimiz va jonajon tabiat”, “Bizning maktab va jonajon tabiat”, “Bizning shahar va jonajon tabiat”, “Jonajon mamlakat”
- D) “Atromizdagi tabiat”, “Geografik karta”, “Yer — quyosh sistemasidagi sayyora”, “O‘zbekiston globus va dunyo xaritasida”

5. Yer orbitasining uzunligi necha million kilometrga teng?

- A) 734 milion km
- B) 934 milion km
- S) 834 milion km
- D) 1034 milion km

SEMINAR MASHG‘ULOTI: 4-SINF “GEOGRAFIYA VA IQTISOD” DASTURI VA DARSLIGINI O‘RGANISH, DARSNI KUZATISH VA TAHLILI

Mashg‘ulotdan maqsad: 4-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlili to‘g‘risida nazariy tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirish. Talabalarning 4-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlili mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo‘shimcha ma’lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang‘ich ta’lim darsliklari, ko‘rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo‘yicha tushuncha va ma’lumotlarni;*
- *o‘quv-tajriba maydonchasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma’lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo‘yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o‘quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o‘quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- 4-sinf “geografiya va iqtisod” dasturi va darsligini o‘rganish, darsni kuzatish va tahlili mavzusi bo‘yicha talabalar bilan og‘zaki savol-javob o‘tkazish;

- o‘rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta’limi jarayonidagi ahamiyati haqida o‘qituvchining hikoyasi;

- quyosh sistemasining tuzilishi haqida talabalarning qisqacha og‘zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o‘qituvchining ko‘rgazma berishi;

- talabalar o‘qituvchi rahbarligida o‘quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;

- boshlang‘ich sinf bo‘yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;

- mavzuga oid test yechish;

- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo‘yicha ma’lumot:

Tabiatshunoslik fanidan 4-sinf uchun taqvim – mavzu reja
(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat)

Darslar tartibi	Mavzu nomi	Soat	Izoh
I CHORAK			
1-dars	Kirish. O‘lkamiz tabiati	1	
2-dars	Yulduzlar. Quyosh	1	
3-dars	Sayyoralar	1	
4-dars	Sayyoralar	1	
5-dars	Amaliy mashg‘ulot. Quyosh sistemasi modelini yasash.	1	
6-dars	Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari. Kosmonavtika	1	
7-dars	Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari. Kosmonavtika	1	
8-dars	Oy — yerning tabiiy yo‘ldoshi	1	
9-dars	Nazorat ishi-1	1	
10-dars	Yer va uning shakli. Globus	1	
11-dars	Yer va uning shakli. Globus	1	
12-dars	Kun va tun. Yil fasllari	1	
13-dars	Amaliy mashg‘ulot. Ob-havoni kuzatish.	1	
14-dars	Amaliy mashg‘ulot. Ufq va uning asosiy tomonlarini aniqlash	1	
15-dars	Yer yuzasining asosiy shakllari	1	
16-dars	Yer osti boyliklari	1	
17-dars	Yer osti boyliklari	1	
18-dars	Nazorat ishi-2	1	
II CHORAK			
19-dars	Xaritalar	1	
20-dars	Amaliy mashg‘ulot. O‘zbekiston xaritasidan viloyatlarni joylashgan o‘rniga ko‘ra aniqlash	1	
21-dars	Suv havzalari	1	
22-dars	Suvdan oqilona foydalanish	1	
23-dars	Amaliy mashg‘ulot. Suvning tabiatdagi aylanma harakati maketini yasash	1	
24-dars	Umumlashtiruvchi dars. Nazorat ishi-3	1	
25-dars	O‘simlik va hayvonot olami	1	

26-dars	Tirik organizmlarning xususiyatlari	1	
27-dars	Amaliy mashg'ulot. O'simlik va hayvonlardagi xususiyatlarni taqqoslash	1	
28-dars	Zamburug'lar dunyosi	1	
29-dars	Amaliy mashg'ulot. Iste'mol qilsa bo'ladigan zamburug'larni ko'paytirish usullari bilan tanishish	1	
30-dars	Amaliy mashg'ulot. Odam organizmida moddalar almashinuvi	1	
31-dars	Odamning sezgi va tayanch harakatlanish organlari	1	
32-dars	Nazorat ishi-4	1	
III CHORAK			
33-dars	Tabiat zonalari	1	
34-dars	O'zbekiston cho'llari tabiati	1	
35-dars	O'zbekiston cho'llari tabiati	1	
36-dars	O'zbekiston adirlari tabiati	1	
37-dars	O'zbekiston adirlari tabiati	1	
38-dars	O'zbekiston tog'lari tabiati	1	
39-dars	O'zbekiston tog'lari tabiati	1	
40-dars	O'zbekistondagi tabiiy boyliklar va tabiatni muhofaza qilish	1	
41-dars	O'zbekistondagi tabiiy boyliklar va tabiatni muhofaza qilish	1	
42-dars	O'zbekiston qo'riqxonalar	1	
43-dars	Nazorat ishi-5	1	
44-dars	Amaliy mashg'ulot. Suvni muhofaza qilish	1	
45-dars	Suvning ob-havoga ta'siri	1	
46-dars	Vatanimiz xaritasi yonida	1	
47-dars	Amaliy mashg'ulot. O'zbekiston Respublikasi siyosiy xaritasining mozaikasini yasash	1	
48-dars	Toshkent shahri va Toshkent viloyati	1	
49-dars	Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari	1	
50-dars	Sirdaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlari	1	
51-dars	Nazorat ishi-6	1	
52-dars	Tabiat zonalari	1	
IV CHORAK			
53-dars	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari	1	
54-dars	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari	1	
55-dars	Buxoro va Navoiy viloyatlari	1	

56-dars	Buxoro va Navoiy viloyatlari	1	
57-dars	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati	1	
58-dars	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati	1	
59-dars	Amaliy mashg‘ulot. O‘z yashash joyi tabiati, tabiat yodgorliklari va madaniy yodgorliklarni o‘rganish	1	
60-dars	Nazorat ishi-7	1	
61-dars	Amaliy mashg‘ulot. Yorug‘lik energiyasini qabul qilish	1	
62-dars	Amaliy mashg‘ulot. Issiqlik almashinuvi	1	
63-dars	Amaliy mashg‘ulot. Tovushning qaytishi	1	
64-dars	Elektr tokidan tejimli foydalanamiz	1	
65-dars	Elektr lampochkasi – kashfiyot samarasi	1	
66-dars	Amaliy mashg‘ulot. Elektrlangan jismlarning ta’sirlanishi	1	
67-dars	Nazorat ishi-8	1	
68-dars	Umumlashtiruvchi dars	1	
JAMI:		68	

Mavzu bo‘yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

MAVZU: XARITALAR

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga xaritalarning turlari, ularning globusdan farqi haqida ma’lumot berish,

FK3: Respublikasining tabiiy xaritasidan tog‘lar, tekisliklar, suv havzalarini aniqlab, ko‘rsata olish.

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni tabiatni sevishga, tabiiy boyliklarimizni asrashga o‘rgatish,

TK4: boshqalar fikrini tinglab, tushuna olish va o‘z fikrini himoya qila olish,

d) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning xaritalar haqidagi hamda ulardan foydalanish malakalarini rivojlantirish.

FK3: Shartli belgilar to‘g‘risida dastlabki tushunchaga ega bo‘lish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi

Darsda foydalaniladigan metodlar: suhbat, savol-javob, tushuntirish, “Tushunchalar talqini” mashqi, “Blits-so‘rov”, B.B.B usuli, bog‘lanishli matn, ekologik muammolar yaratish.

Dars jihozlari: xaritalar, slaydlar, darslik va globus, multimedia ilovasi.

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- O‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

Navbatchi axborotini tinglash, yurtimizda ro‘y berayotgan muhim voqealar, bayramlar haqida so‘raladi.

O‘quvchilarni guruhga bo‘lish, ularni nomlash, guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash):

Qator boshliqlarining axboroti tinglanadi. O‘tilgan mavzu va uyga vazifa so‘raladi.

“Blits-so‘rov” usulidan foydalanib mustahkamlovchi savol-javob tashkil etiladi.

- 1) Ufq nima?
- 2) Ufqning tomonlari deganda nimani tushunasiz?
- 3) Kompas deb qanday asbobga aytiladi? Uning yordamida ufq tomonlari qanday aniqlanadi?
- 4) Tayanch so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va tahlil qiling.
- 5) Uyingizning shimol, sharq, janub, g‘arb tomonida nimalar borligini ayting.

“Tushunchalar talqini” mashqi asosida tayyorlangan tarqatma topshiriq guruhlariga tarqatiladi. Guruhlarning javoblari to‘g‘ri, noto‘g‘ri ekanligi oldindan ekranga tayyorlangan javoblar tekshiriladi.

Darsni xulosalash, o‘quvchilarning olgan bilimlari umumlashtiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzuni tushuntirish:

O'qituvchi o'quvchilarga topishmoq aytib, mavzuga kirish suhbatini tashkil etishi mumkin.

Shahari bor, odami yo'q, Daryosi bor, suvi yo'q. (*xarita*)

1) Xarita nima?

2) Unda nimalarni ko'rishimiz mumkin?

3) Nima uchun xarita kerak?

Slaydlar yordamida tushunchalar namoyish etiladi.

Xaritalar g'oyat ko'p va xilma-xildir. Xaritalar – o'rganish, hisobga olish, saqlash va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Xaritalar 4 ta asosiy belgisiga ko'ra, ya'ni xaritada tasvirlangan hududning katta-kichikligiga, masshtabiga, mazmuniga va ko'zda tutilgan maqsadiga qarab guruhlarga ajratiladi.

Tasvirlangan hududning katta-kichikligiga ko'ra, xaritalar: dunyo va yarimsharlar, materiklar va okeanlar hamda ularning qismlari, tabiiy o'lkalar va ularning qismlari, mamlakatlar, viloyatlar va boshqa ma'muriy birliklar xaritalariga bo'linadi.

Xarita – yer yuzi yoki ayrim qismlarning kuchaytirilgan yassi tasviridir.

Yarimsharlar xaritasi – yer shari sirtining ikkiga bo'lingan doira shaklidagi tasviri. Ular ikkita – g'arbiy yarimshar, sharqiy yarimsharlar.



Masshtab – bir necha marta kichraytirish. Masshtabiga ko'ra: yirik masshtabli (1:10000 dan 1:200000 gacha), o'rta masshtabli (1:200000 dan 1:1000000 gacha), mayda masshtabli (1:1000000 va undan mayda) xaritalar

bo'ladi. Joy planini tuzishda ham muayyan masshtabdan (1:5000) foydalaniladi. Lekin plan kichik hududlar uchun tuziladi.

Globus – yer sharining kichraytirilgan modeli bo'lib, yerning tashqi qiyofasini hamda uning yirik qismlari (materiklar, okeanlar, ularning bo'laklari) nisbatini eng to'g'ri va ko'rgazmali tasvirlaydi. Globusda kartografik tasvirning xatoliklari bo'lmaydi, shuning uchun undagi turli geografik obyektlarni bir-biriga taqqoslash mumkin. Globus yuzasining hamma qismida masshtab bir xil, ya'ni o'zgarmas bo'ladi.

Yunon olimi Pifagor (eramizdan avvalgi VI asr)ning yer shar shaklida degan fikriga asoslanib, yunonistonlik Krates (er.av.II asr) birinchi globusni yasagan. O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Abu Rayhon Beruniy (973-1048-y.) shimoliy yarimsharning globusini yasagan. Birinchi mukammalroq geografik globusni 1492-yilda Martin Bexaym yasagan. Lekin unda Amerika, Avstraliya va Antarktida tasvirlanmagan. Hoji Yusuf Hay'atiy 1886-yilda ishlagan globus Samarqanddagi madaniyat va san'at tarixi muzeyida saqlanmoqda.

Xarita bilan ishlanadi.

Amaliy ish: Yarimsharlar xaritasidagi masshtabdan foydalanib, yer shari ekvatorining uzunligini hisoblaydilar.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

Tabiiy hodisalar haqida (Harakatlari bilan bajariladi)

Mavzuga oid videolavha namoyish etiladi.

Darslikdagi matn bilan ishlanadi.

Xaritalarni turi, undagi yozuv shakllar haqidagi fikrlarni mustahkamlash.

Tabiiy va ma'muriy xarita mavjud.

Tabiiy xarita – quruqlik balandligiga ko'ra turli ranglar bilan tasvirlangan. (22-rasmda xarita tabiiy xaritadir)

Ma'muriy xarita – mamlakatning ma'muriy bo'linishi tasvirlangan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Xarita bilan ishlash:

Quruqlik – to'q yashilda, baland tog' — jigarangdir.

Tayanch so'zlarni o'qitib, ma'nolarini tahlil qilinadi. Shu so'zlar ishtirokida guruh a'zolari **bog'lanishli matn** tuzishlari kerak.

Guruhlarning tuzgan matnlarini o'qitib, mavzudan olgan bilimlari umumlashtiriladi.

Topshiriq: Ekologik muammolar yaratish sahna ko'rinish yoki rasmlar orqali ko'rsatib berish.

“Xazon yoqish” □

“Chiqindilarni turli joyga tashlash”

“Suv, gaz, elektr energiyasidan oqilona foydalanish” “Sigareta, avtomobillardan chiqayotgan zararli gazlardan himoyalaniish”

Topshiriq: Yer kurrasidagi barcha odamlar hayoti dengiz va okeanlar bilan uzviy bog‘liqligini aniqlash. (Dengiz va okeanlarda yashovchi jonivorlar tasviri chiziladi yoki maketi yasaliib, bog‘liqligi yoziladi va xattaxtaga osiladi (tarmoqlash)).

O‘quvchilarning javoblari tinglanadi.

Mustahkamlovchi test topshiriqlari ekran orqali namoyish etiladi.

Quyidagi mustahkamlovchi savollar bilan murojaat qilish mumkin.

Xarita nima?

Yarimsharlar xaritasi haqida gapiring.

Masshtab nima?

Tabiiy xaritada yer yuzi qanday tasvirlangan?

Ma’muriy xarita haqida gapirib bering.

Dars xulosalanadi, o‘quvchilarning bilimlari B.B.B. usuli yordamida umumlashtiriladi.

V. O‘quvchilarni baholash:

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar, guruhlarining javoblari tinglanib, ballari e’lon qilinadi, baholanadi va rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish:

Yozuvsiz xaritani bo‘yash, savollarga javob yozish, 35-39 betlarni ifodali o‘qish.

Mavzu bo‘yicha testlar.

1. 4-sinf “Tabiiy fan” darsligining tuzuvchilari kim?

- A) Akbar Bahromov, Shavkat Sharipov, Manzura Nabiyeva
- B) Z. B. Sangirova, B.S.Xudoyberdiyev, Z. Y. Tillayeva, G.V.Mirzayev
- S) Z. B. Sangirova, A.K.Otaxonov, D.L.Sotivoldiyeva, M. M. Avezov
- D) Z. B. Sangirova, K. T. Suyarov, Z.B.Mengliyev, M.D.Qayumov

2. Quyosh sayyorasidagi 2-sayyoraning nomi?

- A) Yer B) Merkuriy S) Venera D) Saturin

3. Havo namligini o‘lchaydigan asbobni belgilang?

- A) Barometr B) Termometr S) Gigrometr D) Tanometr

4. Poyasi yog‘ochlangan, ammo asosiy tanaga ega bo‘lmagan ko‘p yillik o‘simlik...

- A) o‘t o‘simlik S) buta
- B) chala buta D) daraxt

5. Sirdaryoning uzunligi necha km?

- A) 2137 km C) 3019 km

B) 2000 km D) 1540 km

SEMINAR MASHG'ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA KUZATISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

Mashg'ulotdan maqsad: Geografiya darslarida kuzatish ishlarini tashkil etish to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning geografiya darslarida kuzatish ishlarini tashkil etish mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo'yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- geografiya darslarida kuzatish ishlarini tashkil etish mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;
- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;
- geografiya darslarida kuzatish ishlarini tashkil etish haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Birinchi sinfda kuzatishlar o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab olib boriladi. Ob-havoning o'zgarishlarini kuzatish g'oyat muhimdir. Osmonning holatlarini kuzatish jarayonida

“ochiq”, “bulutli”, “kam bulutli” tushunchalari shakllanadi. Shu vaqtning o‘zida bolalar yog‘inning har xil turlari — yomg‘ir, qor, do‘l, tuman, qirov, bulduruq haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Bolalar asta-sekin ob-havoni kuzatish natijalarini kundaliklari va sinf tabiat kalendarida har kuni belgilab borishga odatlanadilar. Ob-havo va shamolning kuchi, sekundiga necha metr tezlikda esgani darslikda keltirilgan shartli belgilar bilan belgilanadi.

Ob-havoni kuzatishdan tashqari o‘quvchilar o‘simlik va hayvonlar hayotidagi mavsumiy hodisalarni payqashga o‘rganib boradilar. Bolalar o‘simliklar faqat tabiatni bezatib qolmasdan, balki odamlar va hayvonlar uchun zarur ekanligini bilib oladilar: ular ozuqa beradi, havoni hayot uchun zararli gaz va changlardan tozalaydi.

3-4-sinflarda o‘z joyi tabiati va odamlar mehnatini muntazam kuzatish davom ettiriladi. Ularning natijalari tabiat va mehnat kundaligida qayd qilib boriladi. Kuzatishlar kalendar jonli, hujjatli xarakterga ega bo‘lishi uchun unga sarg‘aygan yoki hali yashil bo‘lgan bargchalarni, shuningdek, yilning hozirgi vaqtini va odamlar mehnatini xarakterlovchi suratlar (o‘quvchilar topgan)ni yopishtirish lozim. O‘qitish jarayonida tabiat va mehnat kalendarining roli, agar o‘qituvchi u bilan ishni har kuni to‘g‘ri tashkil etib borsa, ancha ortadi. Kalendarga maxsus ajratilgan vaqtda (3-5 daqiqa) har kuni kuzatishlarning natijalarini kiritib borish ishning bu turiga turg‘un qiziqishning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Maktab geografiya maydonchasidagi dars. Joydagi amaliy ish va kuzatishlarning ko‘p qismini maktab oldi maydonchasida, shuningdek, jihozlangan geografik amaydonchasida o‘tkazish mumkin. Bunday maydonchada odatda tushuntirilishi va o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan murakkab mavzular o‘rganiladi. Geografiya maydonchasida ishni tashkil etish maktaboldi uchastkasidagidek bo‘ladi. Geografiya maydonchasidagi darsga “Tabiatda suv” mavzusidagi dars misol bo‘lishi mumkin. Buning uchun maydonchaga suv (vodoprovod krani) keltirilishi va tegishli suv oqimini hosil qilish kerak. Agar suv oqimi yo‘liga har xil to‘siqlar qo‘yilsa, qirg‘oqlarning yuvilishi, orollarning hosil bo‘lishi, daryoning oqimi, irmog‘i va quyilishi manzarasini vujudga keltirish mumkin.

Geografiya maydonchasida o‘quvchilar tepalikning tuzilishi yaxshi ko‘ringani uchun, yotiq va tik yonbag‘irliklarini qarab chiqadi, keyin o‘zlari qumda tepalik modelini tayyorlaydilar. Shuningdek, soyni uning yaxshi ko‘rinadigan qismlari — boshlanishi, oqimi, quyilishi, o‘ng va chap qirg‘oqlari bilan modellashtirish mumkin. Bunda ular quyoshning ufq ustidagi balandligini aniqlash uchun kun yarmidagi soyaning uzunligini

o'lchashga, ufqning asosiy va oraliq tomonlarini erkin aniqlashga o'rganadilar, tabiat hodisalarini kuzatadilar va tushuntiradilar. Geografiya maydonchasidagi 3-4 sinf o'quvchilari bilan "Mahalliy belgilarga qarab ufq tomonlarini aniqlash", "Kompas bo'yicha aniqlash", "Quruqlik yuzasining shakllari", "Tog'lar" va shu kabi mavzularda bolalarni qiziqtiradi va katta foyda keltiradi, chunki ular amaliy faoliyat bilan bog'liqdir.

Geografiya maydonchasidagi mashg'ulotlar rejasini keltiramiz:

- darsning vazifalari;

- darsga tayyorlanish;

- darsni jihozlash;

- dars o'tishni tashkil etish va metodikasi (dars mavzusi va maqsadini tushuntirish, muammoli savollar qo'yish, muammoli vaziyat vujudga keltirish, o'qituvchining tushuntirishi, o'qituvchining ish uslublarini ko'rsatishi, suhbat, ko'rsatilgan uslublarni o'quvchilar tomonidan takrorlanishi, butun sinf bilan amaliy ish bajarilishi, o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha yo'1-yo'riqlar berish);

- yakuniy suhbat.

Dars boshlanishidagidek tashkiliy ravishda tagallanishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga barcha ish qurollarini to'plashni, ularni tozalab, ko'rsatilgan joyga qo'yishni taklif qiladi. Bir qism vaqt o'quvchilarning o'zlarini tartibga keltirib olishlari: ust va oyoq kiyimlarini tozalashlari, qo'llarini sovun bilan yuvishlari va hokazolar uchun qoldiriladi.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

MAVZU: HARAKAT VA TEZLIK

Maqsadlar:

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya:

- tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llay oladi;

- tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va h.k.) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

- turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi;

- turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko‘nikmalarini safarbar etadi.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi

Darsda foydalaniladigan metodlar: suhbat, savol-javob, tushuntirish, “Tushunchalar talqini” mashqi, “Blits-so‘rov”, B.B.B usuli, bog‘lanishli matn, ekologik muammolar yaratish.

Dars jihozlari: xaritalar, slaydlar, darslik va globus, multimedia ilovasi.

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- O‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

Navbatchi axborotini tinglash, yurtimizda ro‘y berayotgan muhim voqealar, bayramlar haqida so‘raladi.

O‘quvchilarni guruhga bo‘lish, ularni nomlash, guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash):

Qator boshliqlarining axboroti tinglanadi. O‘tilgan mavzu va uyga vazifa so‘raladi.

III. Yangi mavzu bayoni

Jismlar o‘z-o‘zidan harakatlanmaydi. Ularni harakatga keltirish uchun kuch kerak.



Rasmlardagi harakatlar qanday yuzaga keladi?



Harakatlar tortish va itarish sababli yuzaga keladi.

Harakatlar tez va sekin bo‘ladi.

Qaysi biri tezroq harakatlanadi?



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarni savollariga javob beriladi ularga tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so‘ralib bir birlari bilan taassurotlarini o‘rtoqlashadilar.



“Arqon tortish” o‘yini

Bizga kerak

Arqon (3–4 metr)



Bajarish tartibi

1. O‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi.
2. Arqonning o‘rtasini belgilab oling.
3. Belgining ikki tomonidan uch nafardan o‘quvchi arqonni tortadi.
4. 1-guruhdan 1 nafar o‘quvchini kamaytiramiz.
5. Arqon tortishni davom ettiramiz.



Arqon tortishdagi ikkala holatni taqqoslang.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish darsni yakunlash: Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish darsni yakunlash.

VI . Uyga vazifa: Sezgi a‘zolari haqida ma’lumotlar yig‘ish

Mavzu bo‘yicha testlar

1. Kuzatishlar necha xil usulda olib boriladi?

- | | |
|----------|---------|
| A) ikki | S) uch |
| B) to‘rt | D) besh |

2. Yer yuzida qushlarning qancha turi ma’lum ?

- | | |
|------------------|------------------|
| A) 5000 ga yaqin | S) 9000 ga yaqin |
| B) 4000 ga yaqin | D) 5000 ga yaqin |

3. “Yerning tasviri” asari qaysi allomaning qalamiga mansub ?

- | | |
|-----------------|-----------------------|
| A) al-Farg‘oniy | S) al- Xorazmiy |
| B) al-Forobiy | D) Abu Rayxon Beruniy |

4. Quyosh asosan qaysi kimyoviy elementlardan tashkil topgan?

- | | |
|----------------|-------------------|
| A) ftor, uran | S) vodorod, geliy |
| B) geliy, uran | D) geliy, uran |

5. Didaktik talablarga xos xususiyatni belgilang?

- A) vaqtdan oqilona foydalanish, dars mavzusi, maqsadi va vazifalarini to‘g‘ri qo‘yish bilan belgilanadi,
- B) g‘oyaviy-siyosiy, mehnat, axloqiy, estetik kabilarning birligini ta‘minlaydi,
- S) uyg‘unlikni amalga oshiriladi,
- D) yaxlit ya‘ni bir butunlikni ta‘minlaydi

SEMINAR MASHG'ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

Mashg'ulotdan maqsad: Geografiya darslarida laboratoriya mashg'ulotlari to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning geografiya darslarida laboratoriya mashg'ulotlari mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo'yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- geografiya darslarida laboratoriya mashg'ulotlari mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;
- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;
- geografiya darslarida laboratoriya mashg'ulotlari haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Laboratoriya mashg'uloti — o'qitish metodi bo'lib, uning yordamida o'rganilayotgan hodisa qonuniyatini aniqlashga yordam beruvchi sharoitlar yaratiladi. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazishda o'quvchilarda boshqa metodlar bilan egallash mumkin bo'lmagan tabiatshunoslik tasavvurlari shakllanadi. Tajribalar atrof olamni

bilib olishning qiziqarli va samarali metodidir. Ular ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur va nutqni mashqlantirishda katta ahamiyatga ega. U dunyoning moddiyligini, uni idrok qilib olish mumkinligini tasdiqlovchi har xil tabiat jismlarining xossalarini bilib olishning chinakam ilmiy metodidir.

Laboratoriya mashg'uloti mavhum tushunchalarni aniq tushunchalarga aylantirishda bolalarga yordam beradi. Masalan, ular faqat tajriba jarayonidagina termometrning simob ustuni haroratning o'zgarishiga qarab ko'tarilishi va pasayishiga ishonch hosil qiladilar. Faqat tajribagina suvning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ko'rsatadi.

Oddiy laboratoriya mashg'uloti o'quvchilar tomonidan uy sharoitlarida, o'quv-tajriba maydonchasida yoki tirik tabiat burchagida mustaqil bajariladi. Murakkabroq laboratoriya mashg'ulotini o'qituvchi darsda namoyish qiladi. Shuni esda tutish kerakki, mazmuni jihatidan eng oddiy laboratoriya mashg'uloti faqat aniq bilim berishi bilangina emas, balki kuzatish jarayonini fahmlashga, uning natijalarini ta'riflashga yordam berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Materialni mustahkamlash uchun o'qituvchi namoyish qilgan va o'quvchilarning o'zlari o'tkazgan tajribalarning rasmini chizish yoki ularni ta'riflab yozish, ba'zi hollarda uni ham, buni ham bajarish lozim. Asbob va moddalar bilan ishlashda ehtiyotkorlik talab qiluvchi tajribalarni o'qituvchining o'zi o'tkazadi. Har qaysi tajribani boshlashdan oldin o'quvchilarga uning maqsadini, tajriba o'tkazishda nima uchun xuddi shu asbob va moddalar olinganligini yaxshilab tushuntirish, tajribaning o'tkazilishini hikoya qilib berish rejasini tuzish lozim.

Masalan, "Ko'p yillik manzarali va piyozli sabzavot o'simliklarni ekish muddatlarining gullash muddati va mo'lligiga ta'siri" mavzusidagi tajribani (4- sinf) keltiramiz. Tirik tabiat burchagi yoki o'quv — tajriba maydonchasida o'quvchilar tajriba va kontrol o'simliklarining o'sishini parallel holda kuzatib boradilar, ularning rivojlanishini taqqoslaydilar, tajriba ishlari natijalarini qayd qilib boradilar. O'quvchilar tajriba qo'yilishining rasmini chizadilar, daftarlariga xulosalarni yozadilar (tajriba va nazorat qilinayotgan o'simliklar hosilidagi farqlarni belgilaydilar). Bu tajriba o'quvchilar materialni chuqurroq o'zlashtirib olishlari uchun mavzuni o'rganishdan oldinroq o'tkaziladi.

Agar o'qituvchi sinf oldiga quyidagicha muammoli savollar qo'ysa tajriba o'quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi: Qanday isbot qilish kerak? Qanday aniqlash kerak? Tajriba davomida o'qitavchi hamma vaqt o'quvchilar e'tiborini borayotgan jarayonlarga qaratishi, ular tafakkurini

ushbu savollarga yo'naltirishi kerak: Siz hozir nimani ko'rayapsiz? Borayotganlarni qanday tushuntirish mumkin? Nima uchun siz shunday hisoblaysiz? Tajriba tagallangach, o'quvchilar shunday xulosaga olib kelinadiki, uning asosida o'quvchilar qaysi ehtimol to'g'ri, qaysilari xato ekanligiga ishonsinlar.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi

MAVZU: AMALIY MASHG'ULOT. RANGLI ERITMA YORDAMIDA GULNI BO'YASH

Maqsadlar:

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi.

Amaliy kompetensiya: tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi; tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi; turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi; Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko'rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- O‘quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

Navbatchi axborotini tinglash, yurtimizda ro‘y berayotgan muhim voqealar, bayramlar haqida so‘raladi.

O‘quvchilarni guruhga bo‘lish, ularni nomlash, guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi.

II .O‘tgan mavzuni mustahkamlash:

O‘tgan mavzu yuzasidan savol javob orqali guruhlar bilan ishlab mavzu haqidagi fikrlar va umumiy xulosalar mustahkamlanadi.

O‘quvchilarni qiziqtirgan mavzuga doir qo‘shimcha savollarga javob beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni

- 1) Bizga ko‘k, qizil, yashil va sariq gullar kerak.
- 2) Bog‘da faqat oq gullar o‘sadi.
- 3) Qanday qilib oq gullardan rangli gul hosil qilish mumkin?



1-tajriba

Bizga kerak

Oq gullar



Oziq bo'yoqlari



Idishlar



Suv



Bajarish tartibi

1. Oziq bo'yoqlaridan ko'k, qizil, yashil va sariq rangli eritma tayyorlang.
2. Oq gullarni idishdagi rangli suyuqlikka soling.
3. Vaqtni belgilang.
4. Gullarning bo'yalishini kuzating.

Qanday qilib tabiiy bo'yoq hosil qilish mumkin?



2-tajriba

Bizga kerak

Olma



Lavlagi



Limon



Pomidor



Sabzi



Qirg'ich



Doka, oq mato



Shisha idishlar



Bajarish tartibi

1. Olma, lavlagi, limon, pomidor, sabzini qirg'ichdan o'tkazing.
2. Doka yordamida sharbatini siqib oling.
3. Har bir sharbatga oq matoni soling. Matoni quriting.
4. Mato qanday rangga bo'yalishini kuzating.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarni savollariga javob beriladi ularga tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib bir birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar

V. O'quvchilarni rag'batlantirish darsni yakunlash: Dars yakunida, darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish darsni yakunlash .

VI. Uyga vazifa: Sezgi a'zolari haqida ma'lumotlar yig'ish

Mavzu bo'yicha testlar.

1. Oddiy bargga mansub o'simlik turini aniqlang?

- A) yeryong'oq
- B) o'rik
- C) jiyda
- D) loviya

2. Havo namligini o'lchaydigan asbobni belgilang?

- A) Barometr
- B) Gigrometr
- S) Termometr
- D) Tanometr

3. Laboratoriya o'qitishning qaysi metodiga mansub?

- A) grafikli metod
- B) ko'rgazmali metod
- S) og'zaki metod
- D) amaliy metod

4. Geografiya va uni o'qitish metodikasi fanining predmeti:

- A) Bolalarni tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirish
- B) Geografiyani o'qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandır.
- S) Tabiiy va haqiqiy obyektlarni bilish
- D) Jonli va jonsiz tabiatni o'rganish

5. Mirzo Ulug'bekning tabiiyot ilmidagi eng buyuk asari qanday nomlanadi?

- A) "Tib qonunlari"
- B) "Atrofimizdagi olam"
- S) "Ziji Ko'ragoniy"
- D) "Geografiya"

SEMINAR MASHG'ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY ISHLAR

Mashg'ulotdan maqsad: Geografiya darslarida amaliy ishlar to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning geografiya darslarida amaliy ishlar mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;
- o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;
- ✓ mavzu bo'yicha test tuza olishi;

- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o‘quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o‘quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- geografiya darslarida amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha talabalar bilan og‘zaki savol-javob o‘tkazish;
- o‘rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta’limi jarayonidagi ahamiyati haqida o‘qituvchining hikoyasi;
- geografiya darslarida amaliy ishlar haqida talabalarning qisqacha og‘zaki bayoni;
- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o‘qituvchining ko‘rgazma berishi;
- talabalar o‘qituvchi rahbarligida o‘quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang‘ich sinf bo‘yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo‘yicha ma’lumot: Tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishda amaliy ishlar katta rol o‘ynaydi. Amaliy ishlarga o‘quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig‘ish, maktaboldi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o‘simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko‘rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Tabiatshunoslik bo‘yicha amaliy ishlar dastur va darsliklarga kiritilgan, ularning bajarilishi majburiydir. Ular boshlang‘ich sinfda politexnik ta’limni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Amaliy ishlarning samaradorligi o‘quvchilarning ularni bajarishga tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Amaliy ishlarga tayyorlanish odatda uzoq vaqtni talab qiladi va bir necha bosqichdan iborat bo‘ladi.

1. O‘quvchilarning nazariy tayyorlanishi. Masalan, maktaboldi yer maydoniga sabzavot va manzarali o‘simliklarni o‘tqazish oldidan o‘quvchilar ularning urug‘larining unib chiqishini uzoq vaqt kuzatadilar. Uyda, tirik tabiat burchagida yoki darsda bolalar o‘simlik urug‘dan asta-sekin va muayyan sharoit (namlik, havo, issiqlik) bo‘lgandagina rivojlanishini aniqlaydilar.

2. Amaliy ishda o‘quvchilarning barchasi qatnashishlari lozim. Buning uchun bolalarni ish bajarishga kerak bo‘ladigan ish qurollari, asbob-uskuna va materiallar bilan ta’minlash zarur. Masalan, gerbariy tuzish uchun yig‘ilgan o‘simliklar solinadigan papka, qalin qog‘oz yoki karton varag‘i, ip, igna bo‘lishi lozim.

3. O'quvchilarning amaliy ishlari o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. U ishni bajarishda qiynalganlarga o'z vaqtida yordam berishi lozim. Biroq bunda bolalarning faolligi hamda mustaqilligini chegaralamaslik kerak.

4. O'quvchilarning ishlari albatta tahlil qilinadi va baholanadi, muvaffaqiyatli bajarganlar rag'batlantiriladi.

Bu ishlarning bajarilishi o'quvchilarning bilish faolligini oshirishda, bilimlarni konkretlashtirish va mustahkamlashda o'qituvchiga yordam beradi.

Barcha tajriba va amaliy ishlar «Kundalik kuzatishlar daftari» ga qayd qilinadigan yozuvlar bilan birga olib borilishi kerak. Shuningdek, rasmlar chizish, plastilindan obyektlar yopishtirish, tabiiy materiallarni modellashtirish ham tavsiya qilinadi. Bunda o'quvchilar tasvirlanadigan jism yoki hodisaga diqqat bilan qaraydilar, ulardagi ilgari e'tibor berilmagan xususiyatlarni payqaydilar. Amaliy ishlar vaqtida xulosalarni yozib borish yoki rasmlar ostiga yozuvlar yozish bolalarga ta'riflarni aniqlab olishga, tabiatshunoslik atamalarini esda saqlashga yordam beradi.

Amaliy ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

- ish maqsadini e'lon qilish;
- o'qituvchining yo'1-yo'riqlar berishi;
- topshiriqni tushuntirish;
- materiallarni tarqatish;
- kuzatish;
- o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish - suhbat;
- xulosalarni daftarga yozish;
- rasmlar chizish.

Amaliy ish vaqtida o'qituvchi topshiriq tushunarsiz tuyulganda yoki murakkab bo'lganda ayrim o'quvchilarga yordamlashadi. Lozim bo'lsa ish mazmunini butun sinfga takroran tushuntirish kerak bo'ladi. Amaliy ishning asosiy qiyinchiligi kuzatilayotgan hodisalarni anglash, eng muhimlarini ajrata bilish, xulosalarni ifodalay olishdir.

Amaliy ishlar kuzatuv va tajribalarni to'ldiradi, tabiiy materialni o'rganishda bolalarni birlashib ijodiy ravishda ishlashga o'rgatadi.

Amaliy ishlar dars jarayonida, ekskursiyalarda olingan bilimlarni har tomonlama mustahkamlashga imkon beradi. Bundan tashqari, amaliy ishlar bolalarda mehnat malakalari va ko'nikmalari hosil bo'lishiga, mustaqil ishlashga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

**MAVZU: AMALIY MASHG'ULOT: HAVO HARORATINI
O'LCHASH**

Maqsadlar

Ta'limiy: O'quvchilarning tabiatdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurini boyitish. Atrofdagi o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatini oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni so'z boyligini o'stirish. Uning og'zaki nutqini o'stirish.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi: nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo'llaydi;

Amaliy kompetensiya: tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo'llay oladi; tabiiy fanlarga oid tadqiqotlarni amalga oshirish usullaridan foydalanadi;

hodisalarni kuzatadi, taqdimotlar, tajribalar o'tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o'lchov tasmasi, termometr va h.k) yordamida o'lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi; turli jihozlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi; Turmush sharoiti va yashash hududining tabiiy rivojlanishiga amaliy ko'nikmalarini safarbar etadi;

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: ko'rgazma, mehnat qurollari, slaydlar

Dars tipi: aralash, savol-javob

Darsning borishi:

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- O'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirish
- Kun yangiliklarini tinglash.

Navbatchi axborotini tinglash, yurtimizda ro'y berayotgan muhim voqealar, bayramlar haqida so'raladi.

O'quvchilarni guruhga bo'lish, ularni nomlash, guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.

II .O'tgan mavzuni mustahkamlash:


O'tgan mavzu yuzasidan savol javob orqali guruhlar bilan ishlab mavzu haqidagi fikrlar va umumiy xulosalar mustahkamlanadi.

O'quvchilarni qiziqtirgan mavzuga doir qo'shimcha savollarga javob beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.



Havo termometri



Biz har kuni televizor va internet orqali havo sovuq, iliq yoki issiq bo'lishini bilib olamiz. Bular **havoning haroratidir.**

Havo harorati **termometr** yordamida o'lchanadi.

Xona haroratini o'zgartirish mumkinligi, lekin maktab hovlisidagi haroratni o'zgartira olmasligimiz sabablarini tushuntiring

Bizga kerak	Bajarish tartibi
Havo termometri	1. Havo termometri yordamida sinf xonasidagi harorati o'lchang va natijani qog'ozga yozing.
Qog'oz	2. Maktab hovlisidagi haroratni o'qituvchingiz yordamida o'lchang va natijani qog'ozga yozing.
Ruchka	3. O'lchash natijalarini taqqoslang

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarni savollariga javob beriladi ularga tabiat va tabiat hodisalari haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so'ralib bir birlari bilan taassurotlarini o'rtoqlashadilar

V. O'quvchilarni rag'batlantirish darsni yakunlash:

Dars yakunida , darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish , darsni yakunlash .

VI. Uyga vazifa:

Havo haroratini o'lchashni amaliy o'rganish

Mavzu bo'yicha testlar.

1. Amaliy ishlarda ilk bajaradigan vazifamiz?

- A) rasmlar chizish S) ish maqsadini e'lon qilish
- B) daftarga yozish D) kitob o'qish

2. Muammoli vaziyat yaratish va uning tahlili, muammo yechimini izlash, muammoni hal qilish va yechimning to'g'riligini tekshirish masalalari qaysi dars bosqichlariga kiradi?

- A) Muloqot darsi S) Muammoli dars
- B) Pedagogik dars D) Savol-javob darsi

3. Ta'lim-tarbiya jarayoni nima?

- A) O'qituvchining o'rgatuvchanlik faoliyati bilan o'quvchilarning o'qish faoliyatining uyg'unlashuvi
- B) O'qituvchining o'rgatuvchanlik faoliyati
- S) O'qituvchi va o'quvchilarning o'qish faoliyatining uyg'unlashuvi
- D) O'quvchilarning o'qish faoliyatining faollashishi

4. Bu tipdagi darsda o'quvchilar har xil topshiriqlar va Geografiyani boshqa predmetlar bilan aloqasini, tabiat jismlari hamda hodisalarining o'zaro bog'lanishini ochib beruvchi ishlarni o'rganadilar. Bu qaysi dars tipi hisoblanadi?

- A) Birlashtirilgan dars S) Mustahkamlash darsi
- B) Predmetli dars D) Izohli o'qish darsi

5. Tabiat jismlarini bevosita qabul qilish asosida tasavvur va tushunchalar hosil qilishga asoslangan metodika – bu ?

- A) Tabiiy jismlar bilan ishlash metodikasi
- B) Ko‘rgazmali qurollar bilan ishlash metodikasi
- S) O‘quvchilar bilan ishlash
- D) Ta’lim-tarbiya metodikasi

SEMINAR MASHG‘ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YIN, O‘QUV MUNOZARALARI, BURCH VA MA’SULIYATINI SHAKLLANTIRISH) METODLARI GURUHI

Mashg‘ulotdan maqsad: Geografiya darslarida didaktik o‘yin, o‘quv munozaralari, burch va ma’suliyatini shakllantirish) metodlari guruhi to‘g‘risida nazariy tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirish. Talabalarning geografiya darslarida didaktik o‘yin, o‘quv munozaralari, burch va ma’suliyatini shakllantirish) metodlari guruhi mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo‘shimcha ma’lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang‘ich ta’lim darsliklari, ko‘rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo‘yicha tushuncha va ma’lumotlarni;*
- *o‘quv-tajriba maydonchasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma’lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo‘yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o‘quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o‘quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- geografiya darslarida didaktik o‘yin, o‘quv munozaralari, burch va ma’suliyatini shakllantirish) metodlari guruhi mavzusi bo‘yicha talabalar bilan og‘zaki savol-javob o‘tkazish;
- o‘rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta’limi jarayonidagi ahamiyati haqida o‘qituvchining hikoyasi;
- geografiya darslarida didaktik o‘yin, o‘quv munozaralari, burch va ma’suliyatini shakllantirish) metodlari guruhi haqida talabalarning qisqacha og‘zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;
- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Didaktik o'yinlar – ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimini mustahkamlash, o'quv munozaralari, burch va ma'suliyatni shakllantirish, umumlashtirish va tizimga solishga yordam beradi, atrofdagi narsalarga hamda tabiat hodisalariga qiziqishni oshiradi. Umumlashtirish, taqqoslash, muhimini ajratish, bog'lanish va munosabatlar o'rnatish, xulosa chiqarishni talab etadigan o'yinlar eng samarali hisoblanadi. Ba'zi mashg'ulotlarni boshidan oxirigacha o'yin shaklida tashkil etish mumkin. Ayrim mashg'ulotlarda darsni mustahkamlashgako'proq e'tibor qaratiladi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Didaktik o'yinli darslarning muvaffaqiyati, avvalo o'quvchilarning mazkur o'yinlarga puxta va qizg'in tayyorgarlik ko'rishlariga, o'qituvchining mazkur faoliyatni tashkil etish hamda mohirlik bilan boshqarishiga bog'liq.

O'qituvchi didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga amal qilishi lozim:

1. Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi
2. maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
3. Muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi;
4. Barkamol inson shaxsini tarbiyalash tamoyillariga sharqona odob axloq normalariga mos kelishi;
5. O'yin sturukturasi mantiqiy ketma ketlikda bo'lishi;
6. Mazkur darslarda didaktik prinsiplarga amal qilish va eng kam vaqt sarflagan holda ulkan samaraga erishish kerak.

Quyida tabiatshunoslik darslarida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz:

“Tabiat auksioni” o'yini

O'yinda barcha ishtirokchilar qatnashadilar. O'qituvchi bitta o'simlik anor nomini aytadi. Masalan: anjir, ajriq, arpabodiyon va kim ko'p o'simlik nomini aytsa u g'olib deb topilib sovg'a topshiriladi.

“Tasvir bo'yicha o'simlik va hayvonni topish” o'yini

Sinf rahbari turli xil o'simlik va hayvon turlari tasvirlangan, lekin nomi yozilmagan rasm-suratlarini tayyorlaydi. Shartga ko'ra bolalar rasmga qarab o'simlik va hayvonlarni nomini aytadilar. Kim to'g'ri javob bersa unga shu o'simlik yoki hayvon rasmi beriladi. Kim ko'p rasm to'plasa, ug'olib hisoblanadi.

“Diqqat qil” o'yini

O'yin ishtirokchilari davri-doir shaklida turadilar. Sinf rahbari o'simlik va hayvon nomini aytib ularni qayerlarda o'sishi va yashashini tushuntiradi. Masalan: qamish-ko'l bo'yida o'sadi, yoki qamish-tog' tepasida o'sadi; Sinf rahbarining gapi noto'g'ri bo'lishi mumkin. Shartga ko'ra o'yin ishtirokchilari “ha” va “yo'q” javoblari orqali javob bersa o'yindan chetlashtiriladi, davraga qolganlar esa g'olib hisoblanadi.

Topishmoq ayt, topamiz o'yini

O'yinning didaktik vazifasi - Buyumlarni ta'riflash, ta'rifi bo'yicha topish.

O'yin harakatlari- O'simliklar haqida topishmoqlar aytish va ularga javob topish.

O'yinning sharti - O'simliklar quyidagi tartibda ta'riflanadi: dastlab shakli, keyin rangi, hidi haqida gapiriladi. Ta'riflashda buyumning nomini aytish mumkin emas.

O'yinning borishi - Sabzavot va mevalarni stolga shunday qo'yingki, ularning shakli va rangi bolalarga yaxshi ko'rinadigan bo'lsin,

Bu o'quvchi biror sabzavot yoki mevani ta'riflaydi, ikkinchisi ta'rifga asoslanib, uning nomini aytadi. Ta'riflayotgan o'quvchi hadeb o'sha meva yoki sabzavotga qarayvermasligi kerak. Aks holds ikkinchi o'quvchi uning nomini osongina topadi.

Aytilgan daraxt oldiga chopib boring o'yini

O'yinning didaktik vazifasi - Nomi aytilgan daraxtni darrov topishni o'rganish.

O'yin harakatlari - O'yin boshlovchining oldidan nomi aytilgan daraxt tomonga qochish.

O'yinning sharti - O'simliklarning nomi tez-tez o'zgartirib turiladi. Nomi aytilgan daraxt oldida uzoq to'xtab turish mumkin emas. Bir xil nomdagi daraxtlarning biri yonidan ikkinchisi yoniga chopib o'tish mumkin.

O'yinning borishi - O'qituvchi o'yinni boshlovchi bolaga faqat nomi aytilgan daraxt yonida turmagan bolalarni ushlash mumkinligini tushuntiradi.

Avval belgilari yaqqol ifodalangan, so'ngra esa tashqi ko'rinishidan, o'xshash bo'lgan daraxtlarning nomi, masalan, terak va chinor, qayrog'och va tut aytiladi. Bolalar qaysi daraxtning nomi aytilganligini diqqat bilan eshitishlari va "Bir, ikki, uch - yugur!" deb ruxsat berilgach, nomi aytilgan daraxt yoniga yugurib borishlari kerak.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

MAVZU: YER YUZASINING ASOSIY SHAKLLARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga yer yuzasining asosiy shakllari: tog', tekislik, materik va okeanlar haqida ma'lumotlar berish, ularning tabiiy xaritada tasvirlanishi va joylashuvi haqida tasavvurlar hosil qilish.

FK3: Yer yuzasidagi materik va okeanlar, tog' va tekisliklarni aniqlash;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni tepalikni tog'dan, tekislikni o'rmon-qirlardan ajrata olishga, yer yuzasi shaklini solishtirish;

TK5: tabiatni asrash va uni muhofaza qilishga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning tog', tekislik, materik va okeanlar haqidagi dunyoqarashlarini rivojlantirish.

FK3: Yer yuzasidagi tog' va tekisliklar, ularning nomlarini globus va xaritalardan topa olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi

Darsda foydalaniladigan metodlar: tushuntirish, suhbat, "Tushuncha va mazmun" texnologiyasi, krossvord, "B.B.B." texnologiyasi.

Dars jihozlari: Yarimsharlar tabiiy xaritasi, yozuvsiz xarita, tog' va tekisliklar tasvirlangan rasmlar, darslik, multimedia ilovasi.

Darsning borishi:

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism

Salomlashiladi, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorligini nazorat qilinadi. Ob-havo, kun, davomat haqida navbatchi axboroti tinglanadi.

O'quvchilarni guruhlariga bo'linadi:

1-guruh: "Tinch okeani"

2-guruh: "Atlantika okeani"

3- guruh: "Hind okeani"

4-guruh: "Shimoliy muz okeani"

Guruhlarning taqdimoti o'tkaziladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash):

"*Tushunchalar talqini*" didaktik mashqi o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Tushunchalar	Mazmunlar
Siyosiy xarita	Davlat chegaralari ko'rsatilib, har bir davlatning egallagan hududialohida rangda tasvirlanadi
Masshtab	Yer yuzi yoki uning qismi xaritada necha marta kichraytiribko'rsatiladigan sartli belgi.
Xarita	Yer yuzi yoki ayrim qismlarining kichraytirilgan yassi tasviri
Tabiiy xarita	Quruqlik balandligiga ko'ra turli ranglar bilan tasvirlangan bo'ladi.
Yarimsharlar xaritasi	Yer shari sirtining ikkiga bo'lingan doira shaklidagi tasviri.
Ma'muriy xarita	Ma'lum bir mamlakatning ma'muriy bo'linishi tasvirlangan bo'ladi.

O'quvchilar bilan o'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

Xattaxtdagi daraxt barglari orqasiga yozilgan savollarga javob berishadi.

1. Xarita deb nimaga aytiladi? Uning globusdan farqini aytib bering.
2. Yarimsharlar xaritasi deb qanday xaritaga aytiladi?
3. Masshtab nima? Masshtab yordamida bir joydan boshqa joygacha bo'lgan masofa qanday aniqlanadi?
4. Tabiiy xaritada Yer yuzi qanday tasvirlanadi?
5. Siyosiy xarita va ma'muriy xarita deb qanday xaritalarga aytiladi?

Har bir topshiriq uchun guruh ballari kartochkalar orqali ragbatlantiriladi va o‘z konvertlariga to‘plab boriladi.

III. Yangi mavzuni tushuntirish:

Mavzu mazmunini ochib beruvchi animatsiya namoyish etiladi. Yer yuzining asosiy shakllari deganda nimani tushunasiz?

Yer yuzining quruqlik qismida tekis joylar - **tekisliklar** va baland joylar - **tog‘lar** alohida ajralib turadi. **Tog‘lar va tekisliklar**- Yer yuzidagi quruqliklarning asosiy shakllaridir. Yer yuzida tog‘lar tanho shaklda kam uchraydi. Ko‘proq ular bir-biri bilan qatorasiga tutashgan bo‘ladi. Qatorasiga tizilib ketgan tutash tog‘lar **tog‘ tizmasi** deb ataladi.



Ana shu ulkan suvlik oralarida joylashgan quruqliklarni **materiklar** deb ataydilar. Yer sharida oltita materik bor.

- **Yevrosiyo;** ☐
- **Afrika;**
- **Shimoliy Amerika;** ☐
- **Janubiy Amerika;** ☐
- **Avstraliya;** ☐
- **Antaktida.** ☐

Bu materiklarni 4 ta okean o‘rab turadi:

- **Tinch okean;** ☐
- **Atlantika okeani;**
- **Hind okeani;** ☐
- **Shimoliy muz okeani.**

Okean suvining tagi ham quruqlikdagi kabi tog‘ va tekisliklardan iborat. Tekisliklar juda katta maydonni egallagan. Suv tagidagi tog‘ tizmalari baland va juda uzoq masofaga chozilgan. Okeanlarning o‘rtacha chuqurligi **2000-3000 m** atrofi da bo‘ladi. Okeanning ayrim joylari chuqurligi **5000 m** dan oshadi. Eng chuqur joy **Tinch okeanidagi Mariana botig‘i** bo‘lib, uning chuqurligi **11022 m** ni tashkil etadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Dam olish daqiqasi: Ingliz tilida qo'shiq."Clap your hands"

Topshiriq: Materiklar haqida tayyorlab kelingan ma'lumotlarni tinglash.

Xarita bilan ishlash.

1. Ularning eng kattasi **Yevrosiyodir**. Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasi shu materikning O'rta Osiyo qismida joylashgan. Yevropaning maydoni **10 million kvadrat kilometr**ga teng bo'lib, Osiyoning maydoniga qaraganda **4 marta kichikdir**.

2. Kattaligi jihatdan ikkinchi materik–**Afrika**. U ikki okean **Hind va Atlantika okeanlari** o'rtasida joylashgan. Bu yerdagi sahrolar, qalin tropik o'rmonlar va o't-o'lanlar bilan qoplangan pasttekisliklarda turli-tuman hayvonlar yashaydi. Mahalliy aholi dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Dunyodagi **eng uzun daryo** Afrikada joylashgan bo'lib, bu **Nil daryosidir**. Uning uzunligi **6695 km**.

3. **Shimoliy Amerika** o'z maydonining kattaligi jihatidan materiklar orasida uchinchi hisoblanadi. Uning shimoliy viloyatlari juda sovuq bo'lib, asosan o'rmon va ko'llardan iborat. Janubda esa jazirama sahrolar va tropik o'rmonlar yastangan. Bu yerda dunyodagi eng katta **orol Grelantiyada** joylashgan.

4. **Janubiy Amerika** Tinch va Atlantika okeanlari orasida joylashgan. G'arbiy sohillari bo'ylab uzun **And tog' tizmasi** cho'zilib yotadi. Katta tropik o'rmonlar dunyodagi eng yirik daryolardan biri **Amazonka** qirg'oqlarida o'sadi.

5. **Antarktida** – sayyoramizning suv bilan qoplangan eng janubiy hududidir. Bu muzliklar ostida suv emas, qattiq yer bor. Antarktidaning 99% hududi muz bilan qoplangan. Bu materikda tashkil etilgan qutb stansiyalarida ko'pgina mamlakatlarning olimlari ilmiy kuzatishlar olib borishadi.

6. Eng kichik materik **Avstraliya** bo'lib, u janubiy yarimsharda joylashgan. Unda bor-yo'g'i bitta mamlakat joylashgan. Qirg'oqlardan olisdagi yerlar taqir bo'lib, qurg'oqchilik hukmron bo'lgan hududlar hisoblanadi.


Matematik topshiriq beriladi.

Yevropaning maydoni 10 million kvadrat kilometr ga teng bo'lib, Osiyoning maydoniga qaraganda 4 marta kichikdir. Osiyoning yer maydonini aniqlang.

Javob: 40 million kvadrat kilometr

Himolay tog‘ tizmasidagi Jomolungma (Everest) cho‘qqisi balandligi 8848 m ga teng bo‘lib, uning balandligi Mariana botig‘i chuqurligi 11022 m dan qancha kam? Javob: 2174 m kam

Topshiriq: Ekologik muammolar yaratish sahna ko‘rinish yoki rasmlar orqali ko‘rsatib berish. (“Xazon yoqish”, “Chiqindilarni turli joyga tashlash”, “Suv, gaz, elektr energiyasidan oqilona foydalanish”, “Sigareta, avtomobillardan chiqayotgan tutun”)



Gurunlarga krossvord yechish topshirig‘i ekran orqali namoyish etiladi.

1. Eng katta materik.
2. Tekisliklar balandligiga ko‘ra turlaridan biri.
3. Yer yuzidagi quruqlikning asosiy shakllaridan biri.
4. Tekislikning sathi dengiz sathidan 500 m dan baland bo‘lgan joy.
5. Yer yuzidagi eng baland tog‘ cho‘qqisi.
6. Eng kichik okean.
7. Yer yuzining quruqlik qismidagi tekis joylar.

V. Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash:

Bugungi darsdan nimalarni o‘rgandingiz? Barcha o‘quvchilarning javoblarini eshitish, qabul qilish, javoblarini umumlashtirish.

Har bir guruh to‘plagan ballari aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan guruh a‘zolari alohida sovg‘alar bilan taqdirlab, ballar e‘lon qilinadi.

VI. Uyga vazifa berish:

Darsligimizning 35-38 sahifasini o‘qib, savollarga javob yozing.

Yozuvsiz xaritada materik va okeanlarni bo‘yang, nomini yozing.

Mavzu bo‘yicha testlar.

1. Tabiat jismlarini bevosita qabul qilish asosida tasavvur va tushunchalar hosil qilishga asoslangan metodika – bu ?

- A) Tabiiy jismlar bilan ishlash metodikasi
- B) Ko‘rgazmali qurollar bilan ishlash metodikasi
- S) O‘quvchilar bilan ishlash
- D) Ta‘lim-tarbiya metodikasi

2. Didaktik o‘yinli ta’lim texnologiyalari necha guruhda olib boriladi?

- A) uch turga
- B) to‘rt turga
- S) ikki turga
- D) besh turga

3. Sunami – bu.

- A) materiklar zilzilasi natijasida yuzaga keladigan jarayon
- B) suv yuzasidagi tektonik jarayon
- C) vulqonlar otilishi natijasida yuzaga keladigan jarayon
- D) suv osti zilzilasi natijasida yuzaga keladigan to‘lqinlar

4. Hidrosferaning 97,2% ini qanday suvlar tashkil qiladi?

- A) Oqova suvlar
- B) Chuchuk suvlar
- S) Qor, yomg‘ir suvlari
- D) Sho‘r suvlar

5. Geografiya darslarining qanday tiplarini bilasiz?

- A) Birlashtirilgan dars, izohli o‘qish darsi, predmetli dars
- B) Yangi material o‘rganiladigan dars, mustahkamlash darsi
- S) Faqat yangi materialni o‘rganiladigan dars
- D) A va B javoblar to‘g‘ri

SEMINAR MASHG'ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA NAZORAT VA O'Z-O'ZINI NAZORAT (OG'ZAKI VA YOZMA) LABORATORIYA VA AMALIY ISH O'ZARO NAZORAT VARAG'I YORDAMIDA, EHMNING NAZORAT DASTURLARI VOSITASIDA) METODLAR GURUHI

Mashg'ulotdan maqsad: Geografiya darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o'zaro nazorat varag'i yordamida, ehmning nazorat dasturlari vositasida) metodlar guruhi to'g'risida nazariy tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish. Talabalarning geografiya darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o'zaro nazorat varag'i yordamida, ehmning nazorat dasturlari vositasida) metodlar guruhi mavzusiga oid olgan bilimlarini tekshirish va qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Kerakli jihozlar: Boshlang'ich ta'lim darsliklari, ko'rgazmali qurollar, taqdimot, multimedia vositalari, testlar, tarqatma materiallar.

Talaba bilishi kerak:

- *mavzu bo'yicha tushuncha va ma'lumotlarni;*
- *o'quv-tajriba maydonchasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;*
- *mavzuga oid kerakli jihozlar turlarini.*

Talaba bajarishi kerak:

- ✓ *mavzuga oid darslikda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilishi;*
- ✓ *mavzu bo'yicha test tuza olishi;*
- ✓ *mavzuga oid rasm chiza olishi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi uchun joy tayyorlashi;*
- ✓ *o'quv-tajriba maydonchasi amaliy ishlar bajarishi.*

Ishni bajarish tartibi:

- geografiya darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o'zaro nazorat varag'i yordamida, ehmning nazorat dasturlari vositasida) metodlar guruhi mavzusi bo'yicha talabalar bilan og'zaki savol-javob o'tkazish;

- o'rganib kelgan mavzuning tabiiy fan va tabiatshunoslik ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida o'qituvchining hikoyasi;

- geografiya darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o'zaro nazorat varag'i yordamida, ehmning nazorat dasturlari vositasida) metodlar guruhi haqida talabalarning qisqacha og'zaki bayoni;

- mavzuga oid amaliy ishlar haqida o'qituvchining ko'rgazma berishi;

- talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv-tajriba maydonchasida kerakli asbob va jihozlar yordamida amaliy ishlarni bajarishi;
- boshlang'ich sinf bo'yicha mavzuga oid dars ishlanma bilan tanishib chiqish;
- mavzuga oid test yechish;
- talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.

Mavzu bo'yicha ma'lumot: Geografiya darslarida o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) qilishi, laboratoriya va amaliy ish jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma javoblari ularning bilimlarini aks ettiradi va o'qituvchi tomonidan har bir o'quvchining qanday o'zlashtirayotganligini, u o'quv materialini qanchalik egallaganligini ko'rsatuvchi baholar bilan qadrlanadi. Shuning bilan birga ular ma'lum darajada o'qitishning sifatini ham aniqlaydi, chunki o'quvchilar bilimi uning asosiy o'lchovidir.

Bilimlarni baholash intensivligini oshirish uchun bir necha o'quvchilardan bir vaqtda so'rash uslubini qo'llash mumkin. Masalan, bir o'quvchi sinf oldida o'qituvchiga javob beradi. O'quvchilar bilimni baholashda materialni ular qanchalik aniq va ravon tushunganliklari, javobning aniqligi va to'liqligi, shuningdek uning shakli, ya'ni bilimni bayon qilishning izchilligi va to'g'riligi hisobga olinadi.

Geografiya darslarida nazorat va o'z-o'zini nazorat (og'zaki va yozma) laboratoriya va amaliy ish o'zaro nazorat varag'i yordamida, EXMning nazorat dasturlari vositasida o'quvchilar bilimni nazorat qilishning zamonaviy usullarini o'rgatish jarayonida berilayotgan ma'lumotning o'quvchi tomonidan qisqa vaqt ichida kafolatlangan yuqori natijalar bilan o'zlashtirishni ta'minlaydigan ilg'or pedagogik innovatsion hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) bugungi kunning talabi bilan jahon standarti asosida maktab tizimiga sekin-asta bo'lsada kiritilmoqda.

Geografiyani o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning afzaliklari. Multimedia vositalari asosida o'quvchiga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Hususan tabiatshunoslik darslarini yuqorida tilga olingan texnologiyalar yordamida rivojlantirishdan avval ularni ko'r-ko'rona qo'llashdan farqli o'laroq, shu texnologiyalarni fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalda qo'llashning natijasi yuqori bo'ladi. Berilayotgan ma'lumotning o'quvchi tomonidan qisqa vaqt ichida kafolatlangan yuqori natijalar bilan o'zlashtirishni ta'minlaydigan ilg'or pedagogik innovatsion hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) bugungi kunning talabi bilan jahon standarti asosida maktab tizimiga sekin-asta bo'lsada kiritilmoqda.

Geografiyani o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning afzaliklari. Multimedia vositalari asosida o'quvchiga ta'lim berish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Hususan tabiatshunoslik darslarini yuqorida tilga olingan texnologiyalar yordamida rivojlantirishdan avval ularni ko'r-ko'rona qo'llashdan farqli o'laroq, shu texnologiyalarni fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalda qo'llashning natijasi yuqori bo'ladi.

Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanma namunasi.

QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining O'zbekistonning janubida joylashgani, o'ziga xos tabiati, aholisi, sanoati, tarixi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish;

FK3: Viloyatlarning darslikdagi xaritasidan unda berilgan geografik obyektlar, shaharlarni topa olish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiatini asrash, tejamkorlikka o'rgatish;

TK5: Viloyatlaridagi o'simlik va hayvonlarni asrab-avaylashga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiatini, sanoati haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

FK: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarning tabiati, aholisining yashash tarzi, hamda xo'jaligining bir-biridan farq qilishini tushuna olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodlari: suhbat-munozara, muloqot texnologiyasi, aqliy hujum.

Dars jihozlari: darslik, multimedia ilovalari, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiati, yirik sanoat tarmoqlari va ularning mahsulotlari, aholisining turmush tarzi, tarixiy obidalarini tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovasi.

Darsning borishi:

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa

4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi, ularning darsga tayyorligi nazorat qilinadi, Mavzuni tushuntirishda yordam beradigan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining xushmanzara tabiati, sanoati, aholisining turmush tarzi, tarixi kabilar tasvirlangan rasmlar tayyorlanadi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash):

O'tilgan mavzu yuzasidan uyga berilgan vazifaning bajarilganligi kuzatib, o'rganib chiqiladi. Savol-javoblar asosida o'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimlari aniqlanadi.

III. Yangi mavzuni tushuntirish:

Yangi mavzuga kirish suhbat tashkil qilinadi.

-O'zbekiston Respublikasining janubida joylashgan viloyatlarni bilasizmi?

-Ufq tomonlarini esga olamiz. Quyosh chiqar tomon–sharq, Quyosh botadigan tomoni –janubligini yaxshi bilasiz.

Mavzuga oid **videolavha** namoyish etiladi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Respublikamizning eng janubiy qismida joylashganligi, bu ikkita viloyatni mamlakatimizdagi eng baland Hisor tog'lari bir-biridan ajratib turishi, O'zbekistondagi eng baland tog' cho'qqisi Xazrati Sulton (4643 m)

Surxondaryo viloyatida shu Hisor tog'ida joylashganligi aytib o'tiladi.

Darslik bilan ishlash. 63-65 rasmlar bilan birgalikda ishlanib, tahlil qilinadi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiati, sanoati, aholisi haqida videolavha namoyish etiladi. Videolavhadan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'quvchilar guruhlariga ajratilib, o'rgangan bilimlarini Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining o'xshashligi va farqi haqidagi T chizmasi asosida ishlash usulidan foydalanib, qiyosiy tahlil qiladilar.

Mustahkamlovchi didaktik mashq o'tkaziladi.

QASHQADARYO	SURXONDARYO

Mustahkamlovchi test topshiriqlari ekran orqali beriladi.

1. Surxon davlat qo‘riqxonasida nimalar muhofaza qilinadi?

- a) o‘simliklar; b) tog‘ - yong‘oqlari;
- d) archazorlar; e) hayvonlar.

2. Tog‘ jinslarini o‘rganish va muhofaza qilish maqsadida qanday qo‘riqxona tashkil etilgan?

- a) Kitob davlat geologiya qo‘riqxonasi; b) Surxon davlat qo‘riqxonasi;
- d) Hisor davlat qo‘riqxonasi; e) Zomin milliy tabiat bog‘i.

3. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining adirlarida qanday o‘simliklar o‘sadi?

- a) yulg‘un, kovrak, astragal; b) lolaqizg‘aldoq; saksovul, lola;
- d) archa, na‘matak, do‘lana; e) qayin, bodom, silovsin.

4. Surxondaryo viloyatining shaharlarini ko‘rsating.

- a) Denov, Boysun, Sherobod; b) G‘uzor, Qarshi, Kitob;
- d) Kattaqo‘rg‘on, Navoiy, Oqtosh; e) Guliston, Baxt, Oqqo‘rg‘on.

5. Eng issiqsevar mevalar: xurmo, anor, anjir kabilar qaysi viloyatlarda yetishtiriladi?

- a) Navoiy va Buxoro;
- b) Sirdaryo va Jizzax;
- d) Qashqadaryo va Surxondaryo;
- e) Xorazm va Navoiy.

Ekran orqali berilgan test savollarining javoblarini oldindan tayyorlab qo‘yilgan shablon bilan tekshirish qulaydir.

V. Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash:

O‘rganilayotgan yangi mavzuning o‘zlashtirilganligi guruhlardagi faoliyatlari, savol-javoblar asosida aniqlanadi, mustahkamlanadi, javoblari izohlanib, baholanadi.

VI.Uyga vazifa berish:

O‘quvchilarga darslikdagi mavzuni o‘qib chiqish, mavzudan so‘ng berilgan topshiriqlarni bajarish uyga vazifa qilib beriladi.

Mavzu bo'yicha testlar.

1. Kuzatishlar, tajribalar, eksperimentlarga asoslangan o'qitishni qaysi metodist olim o'z asarlarida ta'kidlagan?

- | | |
|---------------|------------------|
| A) V.F. Zuyev | S) Y.M. Belskaya |
| B) V.A. Gerd | D) M.N.Skatkin |

2. "Tabiiyot tarixining ko'rgazmalari" asarining muallifi kim?

- | | |
|--------------------|-----------------|
| A) K.D.Ushinskiy | S) Y.M.Belskaya |
| B) Abdulla Avloniy | D) V.F.Zuyev |

3. Multimedia vositalaridan foydalanib dars o'tish necha foizgacha vaqtni tejaydi?

- | | |
|---------|---------|
| A) 50 % | S) 30 % |
| B) 20 % | D) 40% |

4. Tabiatshunoslik darslarida o'qitishning izchilligi nima bilan belgilanadi?

- A) O'qituvchining o'quv materialini tushuntirishi
- B) O'quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarligi, o'quv materialini tushunishi
- S) O'qituvchining darsga tayyorgarligi
- D) O'quvchilarning yosh xususiyatlari

5. Geografiyani o'qitishda amaliy yoki nazariy maqsadlarga erishish uchun yangi yechim axtarishga majbur qiladigan Holatga nima deyiladi?

- | | |
|----------------|---------------------|
| A) Aqliy hujum | S) Muammoli yechim |
| B) Savol-javob | D) Muammoli vaziyat |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56 B.
2. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
3. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.
4. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent –“O‘zbekiston” -2017.104 B.
5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. Nuriddinova. M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2005.
7. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam darsligi 1-sinf. T.: “o‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
8. Mirzaxmatova Sh., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta’lim. (Uslubiy qo‘llanma) – T.: “Yangi asr avlodi”, 2011-yil. -44b.
9. Umumta’lim maktablarining o‘quv dasturlari (boshlang‘ich sinflar) 2012yil.
10. A.Hamidov A.To‘xtayev va boshqalar. Botanikadan o‘qituvchilar uchun qo‘llanma.
11. D.Yormatova. Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. T.:”Aloqachi” nashriyoti, 2008, 312 bet.
12. Grigoryans A.G. “Atrofimizdagi olam”1-sinf darsligi. T.:“Cho‘lpon” nashriyoti. 2014.
13. G‘ulomov P., Mirzaxmatova Sh. Atrofimizdagi olam 2-sinf. T.: “Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2016.
14. Bahramov.A, Sharipov. Sh, Nabiyeva. M. Tabiatshunoslik darsligi 3-sinf. T.:“Cho‘lpon” nashriyoti. 2016.
15. Bahramov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasibosh tahririyati. 2017.
16. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Sharipov. Tabiatshunoslikni va uni o‘qitish metodikasi. darslik.T.. “ Barkamol fayz media” nashriyoti. 2018.

17. Tangirqulov E.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof – muhitni asrash orqali ekologik tarbiya berish mexanizmlari// O'zbekiston Milliy universiteti xabarleri. – Toshkent, 2023. – №1/8/1-son.ISSN2181-7324 – B.231-233.
18. Tangirqulov E.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitni asrash orqali ekologik tarbiya berish umumiy-nazariy, metodologik asoslari// Ilm sarchashmasi. – Urganch, 2023. – №9-son.ISSN2010-6246 – B.78-80.
19. Тангирқулов Э.А. Бошланғич синф ўқувчиларида атроф муҳитни асраш орқали экологик тарбия механизмлари тақомиллаштириш муаммо сифатида// Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў илимий-методикальқ журнали. – Нукус, 2022. – №6-сон.ISSN2181-7138 – Б.124-128.
20. Turdiqulov.E.O., Turdiqulov.U.O. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti . –T.: Fan, 2005, - 309 b.
21. To'rayev S. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda maktab vaoila hamkorligi // Xalq ta'limi j., 1997. 4-son. - 99101 b.
22. To'xliyev D., Qobilov T. Ekologik bilim: o'quvchilarda vatanparvarlik hissini mustahkamlaydi // Ma'rifat g., 2000 yil, aprel.
23. Uvatov U. Donalardan saboqlar. - T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2000, -207 b.
24. Usmonov T. Abu Rayhon Beruniy va Ma'mun akademiyasi. - T.: Nikon, 2001. -42 b.
25. Sino, Abu Ali ibn. Tib qonunlari. III jidlik saylanma / Tuzuvchilar: U. Karimov, X.Xikmatullayev. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagitibbiyot nashriyoti, 1996, -418 b.

Mundarija

1. SO‘Z BOSHI	3
2. SEMINAR MASHG‘ULOTI: QUYOSH SISTEMASI.....	4
3. MAVZU: QUYOSH SISTEMASIDAGI BOSHQA OSMON JISMLARI. KOSMONAVTIKA.....	6
4. SEMINAR MASHG‘ULOTI: HAYVONOT OLAMI	12
5. MAVZU BO‘YICHA BIR SOATLIK DARS ISHLANMA NAMUNASI.....	15
6. SEMINAR MASHG‘ULOTI: O‘SIMLIKLAR DUNYOSI	20
7. MAVZU: MANZARALI O‘SIMLIKLAR.	23
8. SEMINAR MASHG‘ULOTI: O‘QUV-TAJRIBA UCHASTKASIDA MAVSUMIY ISHLARNI TASHKIL ETISH	26
9. SEMINAR MASHG‘ULOTI: JO‘G‘ROFIY MAYDONCHASIDA KUZATISH, AMALIY VA LABORATORIYA ISHLARINING YILLIK REJASINI TUZISH.....	32
10. MAVZU: O‘SIMLIKLARNING XILMA-XILLIGI	34
11. SEMINAR MASHG‘ULOTI: GEOGRAFIYA FANIDAN DASTUR VA MAVJUD KO‘RGAZMALI QUROLLAR TAHLILI	37
12. MAVZU: O‘SIMLIKLARNING HAYOT SIKLI	41
13. SEMINAR MASHG‘ULOTI: O‘QITUVCHINING GEOGRAFIYA DARSLARIGA TAYYORGARLIK KO‘RISHI. REJALASHTIRISH. 1-TAQVIM REJA, DARS ISHLANMASINI TUZISH. METODIK ADABIYOTLARNI TAHLIL QILISH.....	45
14. SEMINAR MASHG‘ULOTI: 1-SINF “GEOGRAFIYA VA IQTISOD” DASTURI VA DARSLIGINI O‘RGANISH, DARSNI KUZATISH VA TAHLIL QILISH	50
15. MAVZU: YOZ	54
16. SEMINAR MASHG‘ULOTI: 2-SINF “GEOGRAFIYA VA IQTISOD” DASTURI VA DARSLIGINI O‘RGANISH, DARSNI KUZATISH VA TAHLIL	56
17. MAVZU: BOB YUZASIDAN TAKRORLASH.....	60
18. MAVZU: AMALIY MASHG‘ULOT. YASHASH JOYIGA XOS O‘SIMLIK VA HAYVONLARNI MOS RAVISHDA JOYLASHTIRISH	

19. SEMINAR MASHG‘ULOTI: 3-SINF “GEOGRAFIYA VA IQTISOD” DASTURI VA DARSLIGINI O‘RGANISH, DARSNI KUZATISH VA TAHLIL QILISH	66
20. Mavzu: Tirik organizmlarning xilma-xilligi	69
21. SEMINAR MASHG‘ULOTI: 4-SINF “GEOGRAFIYA VA IQTISOD” DASTURI VA DARSLIGINI O‘RGANISH, DARSNI KUZATISH VA TAHLILI.....	74
22. MAVZU: XARITALAR	77
23. SEMINAR MASHG‘ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA KUZATISH ISHLARINI TASHKIL ETISH	82
24. MAVZU: HARAKAT VA TEZLIK	84
25. SEMINAR MASHG‘ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI	88
26. MAVZU: AMALIY MASHG‘ULOT. RANGLI ERITMA YORDAMIDA GULNI BO‘YASH	90
27. SEMINAR MASHG‘ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY ISHLAR.....	93
28. MAVZU: AMALIY MASHG‘ULOT: HAVO HARORATINI O‘LCHASH	96
29. SEMINAR MASHG‘ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YIN, O‘QUV MUNOZARALARI, BURCH VA MA’SULIYATINI SHAKLLANTIRISH) METODLARI GURUHI	99
30. MAVZU: YER YUZASINING ASOSIY SHAKLLARI.....	102
31. SEMINAR MASHG‘ULOTI: GEOGRAFIYA DARSLARIDA NAZORAT VA O‘Z-O‘ZINI NAZORAT (OG‘ZAKI VA YOZMA) LABORATORIYA VA AMALIY ISH O‘ZARO NAZORAT VARAG‘I YORDAMIDA, EHMNING NAZORAT DASTURLARI VOSITASIDA) METODLAR GURUHI.....	108
32. QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI.....	110
33. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:.....	114

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI**

Elmurod Tangirqulov

GEOGRAFIYA O‘QITISH METODIKASI

fanidan

SEMINAR MASHG‘ULOTLAR UCHUN

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: O.Nizomiddinov

Musahhih: F.Abdimurodov

Texnik muharrir: A.Bo‘riyev

Kompyuterda sahifalovchi: A.Tolipov

Terishga 10.04.2024-yilda berildi.

Bosishga 20.05.2024-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Hajmi 7,5 bosma taboq.

Buyurtma №77 Times New Roman garniturasida.

Ofset usulda chop etildi. 100 nusxada. 120 bet.

“SURXON ILM NASHRI” nashriyoti.

Termiz davlat universiteti NMM bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” ko‘chasi, 43-uy.